


435.2

49

P-55



SUNNATULLA RIZAYEV

IMLO-SAVODXONLIK ASOSI

(Istiqlol alifbosi va imlosiga doir)

2004

435.2
49
P-55

O'zbek filologiyasi
fakulteti
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA OQUV ZAL
O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

IMLO - SAVODXONLIK ASOSI

(Istiqlol alifbosi va imlosiga doir)

494, 322 486, - 1

Sunnatulla RIZAYEV,
TDIU professori.

O'zbek filologiyasi
fakulteti
KUTUBXONASI

1012

Toshkent - 2004

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
8253
TOSHTO'TAU
AXBOROT-RESURS MARKAZI

Qo'llanma Toshkent davlat iqtisodiyot universitetini o'quv metodika Kengashi tomonidan ma'qullangan va nashrga tavsiya etilgan.

Qo'lingizdagi qo'llanma haftasiga 8 soatdan 3 haftalik, ya'ni 24 soatlik dasturga mo'ljallangan bo'lib, unda asosan, o'zbek milliy yozuvining taraqqiyoti, harflarning bosma va yozma bosh (katta) va kichik shakllari bo'yicha ko'rsatmalar, o'zbek tilining asosiy imlo qoidalari va o'qish, yozish ko'nikma va malakalarini mustahkamlash uchun matnlar nazarda tutilgan.

Nihoyat, yangi alifbo va imloni o'rganuvchilar ellikta topshiriqdan iborat bo'lgan «Test topshiriqlari» orqali o'zlarining bilim saviyalari va savodxonlik darajalarini kompyuter yordamida sinab oladilar.

Qo'llanmadan nafaqat oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlaridagi o'qituvchilar va talabalar, balki yangi o'zbek alifbosi va imlosi bilan qiziquvchilar (keng omma) ham foydalanishlari mumkin.

Muharrir: filologiya fanlari doktori,
professor **Hamidulla DADABOYEV.**

Taqrizchilar: filologiya fanlari doktori,
professor **Maqsuda SODIQOVA,**

filologiya fanlari nomzodi,
dotsent **Abdurauf RAFIYEV.**

Yangi o'zbek alifbosi va imlosini o'rgatish (o'rganish) bo'yicha o'quv soatlarining taxminiy taqsimoti

T/r	Mavzularning nomi	Soat
1	<p>Kirish. Kursning maqsad va vazifalari. O'zbek milliy yozuvining rivojlanishi. O'zbek lotin va o'zbek kirill alifbolarining o'zaro qiyosiy tahlili va bunda o'zbek lotin alifbosining afzalliklari. O'zbekiston Respublikasining «Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida»gi Qonuni (1993-y. 2.IX).</p> <p>O'zbekiston Respublikasining «Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida»gi Qonuniga o'zgartishlar kiritish haqida»gi Oliy Majlis Qarori (1995- y. 6.V) va buni amalga kiritish tartibi haqidagi hujjatlarning tarixiy va amaliy ahamiyati.</p>	2
2	<p>Yangi o'zbek lotin alifbosi (26 ta harf va 3 ta harflar birikmasi). Harflarning bosma va yozma bosh (katta) va kichik shakllarining yozilishi va talaffuzi. Tutashtiruvchi unsurli harflar va tutashtiruvchi unsursiz harflar (Tutashtiruvchi unsursiz bosh harflarga yozish vaqtida unsur qo'shiladi). Ustki, ostki va o'rta qismidan tutashtirib yoziladigan bosh va kichik harflar. Unli va undosh tovushlarni ifodalovchi harflar.</p>	2
3	<p>O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash haqida»gi Qarori (1995- y. 24.VIII) va uning nazariy va amaliy ahamiyati. Imlo qoidalari bo'limlari: Unlilar imlosi. Undoshlar imlosi. So'zning asosi va qo'shimchalar imlosi. Sonlar imlosi. Yuklamalarning imlosi. Qo'shib yozish. Chiziqcha bilan yozish. Ajratib yozish. Bosh harflar imlosi. So'z ko'chirish qoidalari.</p> <p>Harflar birikmasi bilan ifodalangan nutq tovushlari va ularning imlosi. Sarlavhalar, shiorlarda so'zlar bosh harflarda yozilganda Sh, Ch, Ng larning ham SH, CH, NG tarzida yozilishi.</p>	2
4	<p>- tutuq belgisi. Tutuq belgisi boshqa-yu, ko'chish belgisi (o', g') boshqa.</p>	2
5	<p>Kirill alifbosidagi «е, ё, ю, я, и, ж» harflari ifodalangan nutq tovushlarining yangi alifboda yozilishi. Familiyalarni yasovchi qo'shimchalar va ularning imlosi.</p>	2

6	O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasini eshitib yozish. Turli xil matnlarni ichda va ovoz chiqarib, ifodali o'qish mashqlarini bajarish.	2
7	Husnixat qoidalariga rioya qilib, berilgan matnni ko'chirib yozish. Ta'limiy va nazorat diktanti.	2
8	Diktant tahlili. «Hadis»lardan namunalar o'qish. Bosma matnni yozma matnga o'girib ko'chirish mashqlarini bajarish. «Amir Temur o'g'itlari» matnini o'qish.	2
9	Berilgan 3, 4, 5, 6 harflarning o'zaro uyg'unlashuvi (kombinatsiyalari)dan so'zlar tuzish va ularni alifbo tartibida joylashtirish.	2
10	Mutaxassisligiga oid qirq-elliktacha atama (termin) yozish va ularni alifbo tartibida joylashtirish.	2
11	Ta'limiy va nazorat diktanti.	2
12	Diktant tahlili. Imloviy mashqlar. Lug'atlardan foydalanish ko'nikma va malakalarini takomillashtirish.	2
	Reyting nazorati asosida test sinovlari bilan yakunlash.	2
Jami		24

ISTIQLOL ALIFBOSI VA IMLOSIGA DOIR

Respublikamiz mustaqillikka erishgach, istiqlol mamlakatimiz kuch-qudratini, obro'-e'tiborini ko'tarish va respublikamizning har taraflama kamo-topishi uchun qulay sharoitni yaratish maqsadida 1993- yil 2- sentabrda «Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida» O'zbekiston Respublikasining Qonuni qabul qilindi. Oradan yigirma oy o'tgach, 1995- yil 6- mayda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan mazkur Qonunga ayrim o'zgartishlar kiritildi. Jumladan, 1- modda (band)dagi «31 harf va 1 tutuq belgisi (apostrof)dan» so'zlari «26ta harf va 3ta harflar birikmasidan» so'zlari bilan almashtirildi. Hamda kirilchadagi «И и» va «J j» (Sirg'aluvchi undoshni ifodalovchi) harflari mustaqil harf belgisi sifatida alifbodan chiqarildi; «sh», «ch», «ng» - harflar birikmasi bilan almashtirildi; «o'» va «g'» harflarining bosma bosh (katta) va kichik shakllari; «A a», «I i», «G g», «G' g'» harflarining yozma bosh shakllari; «Z z»ning yozma bosh va kichik shakllari; «Q q»ning yozma kichik shakli o'zgartirildi. Shuningdek, lotin yozuviga bosqichma-bosqich o'tish muddati 2000- yildan 2005- yilgacha (2005- yilning 2- sentabrigacha) uzaytirildi. Oliy Majlis qaroriga ko'ra 1996/97- o'quv yili (2- sentabri)dan boshlab umumta'lim maktablarining birinchi sinflarida va maktabgacha tarbiya bolalar muassasalarida yangi o'zbek lotin alifbosi va imlosida mashg'ulotlar o'tkazila boshlandi. 2002/2003- o'quv yilida I-IX sinflarda lotin yozuvida darslar olib borilmoqda. Bular keng ko'lamda olib boriladigan mas'uliyatli ishlardan bo'lib, oldimizda alifbodan tortib, qomus (ensiklopediya)gacha hamma-hammasini qayta chop etish, lotin harflari asosidagi o'zbek milliy yozuvimizni yosh-u qariga o'rgatish va o'qitishning eng samarali metod va usullarini topish hamda ularni amalga oshirish kabi dolzarb vazifalar turibdi. Biroq ushbu yo'lda qanchalik iqtisodiy, texnikaviy va boshqa qiyinchiliklar bo'lmasin, amalga oshirishimiz, jiddiy ishga kirishishimiz maqsadga muvofiqdir. Ma'lumki, qaysi til yangi alifboni qabul qilsa, shu alifbo asosida tilning asosiy imlo qoidalari yaratilishini taqozo etadi. Yuqoridagi Qonunni bajarish maqsadida Vazirlar Mahkamasining qaroriga ko'ra 1995- yilning 24- avgustida «O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari» tasdiqlandi (82- bandlik). Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi vazirliklari, idoralari, mahalliy hokimiyat va boshqaruv idoralari, ommaviy axborot vositalari lotin yozuviga asoslangan yangi o'zbek alifbosidagi barcha turdagi yozishmalarda, matbuotda, ish yuritishda ushbu qoidalarni joriy qilish yuzasidan tegishli tadbirlarni ishlab chiqishlari va amalga oshirishlari hamda O'zR FA, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi, Davlat

Matbuot qo'mitasi uch oy muddat ichida maktablar uchun qo'llanma sifatida o'zbek tilining imlo lug'atini (Bu lug'at professorlar Shavkat Rahmatullayev va Azim Hojiyev tomonidan tuzilib, 1995- yilda hamda S. Rizayev tomonidan «Imlo va talaffuz lug'ati» tuzilib, «O'qituvchi» nashriyotida 1998- yilda chop etildi), kishi ismlari va joy nomlari lug'atlarini tayyorlashlari va nashr etish choralari ko'rishlari alohida ta'kidlab o'tilgan. Taassuflar bo'lsinki, bu qarorga ko'p joylarda yetarli e'tibor berilmayapti. Vaqt esa o'tib borayapti. Alifbo masalasini kompyuter bilan bog'lash benihoya muhimdir. Chunki inson va kompyuter uchun zarur bo'lgan barcha harflar, turli tinish (punktuatsion) belgilari, riyoziyot va maxsus belgilar kompyuterga kiritilgan va ularning har biri o'z o'zni (kodi)ga ega bo'lib, bu harf va belgilarning soni texnik nuqtayi nazaridan 256 taga teng qilib olinganligini, ularning kodlari jadvali jahon xalqlari uchun yagona tizim sifatida qabul qilinganligini qayd etib o'tish maqsadga muvofiqdir. Yuqoridagi holatlarni kompyuter bilan muloqotda bo'lmaganlar uchun tushunish mushkulroq bo'lishi mumkin. Ammo biror matnni kompyuterda terib ko'rganlar uchun o'zbek kirillcha «O' o'», «Q q», «G' g'», «H h» harflari bilan bog'liq ba'zi qiyinchiliklar yoki anglashilmovchiliklar mavjud. Ana shu harflar uchun kodlar jadvalidan sakkizta belgini «siqib» chiqarishdan o'zga chora yo'q edi. Buning ustiga bu harflarni yozish imkonini beruvchi maxsus dastur-drayverlar muammoning to'liq yechimi bo'la olmasligi shak-shubhasizdir. So'nggi o'zgarishlar bilan qabul qilingan alifbomizda shaklan lotin alifbosidagi harflardan farq qiluvchi birorta harfning yo'qligi mavjud 256 harf, belgilarning na o'zini, na o'zni (kodi)ni o'zgartirmaslik imkonini beradi. Binobarin, bir so'z bilan aytganda yangi o'rnatilgan kompyuter uchun endi yuqorida aytilganga o'xshash hech qanday drayverning mutlaqo keragi yo'q. Yangi o'zbek lotin alifbosi harflari bilan kompyuterda ishlash jarayonida «ko'chish belgisi»dan foydalanish juda katta qulaylik yaratadi. Ma'lumki, «ko'chish belgisi»ning kodi 96- bo'lib, kompyuter klaviaturasida uning o'z o'zni bor. Chunonchi, «G' g'» harfini yangi o'zbek lotin alifbosida ifoda etish uchun klaviaturadan avval «G» harfi, so'ngra «'» - ko'chish belgisi teriladi. Harf va belgi birikmasi yuqoridagi tovush (harf)ni, ya'ni «G' g'»ni ifoda etish imkonini beradi. Bu birikmani bir tugma bilan kiritish qulay emas. Bu birikmani bitta harfga birlashtirish qabul qilingan tizimdan biror harf yoki belgining chiqarib tashlanishiga majbur bo'lamiz. Qolaversa, avvalgi «O' o', Q q, G' g', H h» harflarini kiritish uchun ham klaviaturadagi kamida ikki tugmani bosish kerak bo'lar edi. Shaklan yangi harf kiritishning yana bir noqulayligi

shundaki, bu harf uchun klaviaturada ham o'rin izlash kerak bo'ladi, ya'ni mavjud biror harfni o'chirib, ustiga qo'pol qilib yangisini yozish zaruriyati tug'iladi. Masalaning yana iqtisodiy tomoniga qaytishga majburmiz. Hammamizga ma'lumki, yozuv mashinkalarini «o'zbekchalashtirish» uchun «ortiqcha» rus harfi yoki belgilari o'rniga yetishmayotgan «O' o', Q q, G g', H h» harflari joylashtiriladi. Natijada bunday mashinkada rus tilidagi matnni yozish imkoniyati yo'qolar edi. Anglashiladiki, lotin yozuviga mo'ljallangan har bir mashinkada bunday o'zgartirishlar ozmuncha mablag' talab etadimi?!? Buning ustiga sof ingliz tilida maktub yozmoqchi bo'lsakchi?!? Shuni ham eslab o'tish joizki, ilg'or chet el mamlakatlarida mexanik yozuv mashinkalari o'z o'rnini elektron yozuv mashinkalariga bo'shatib beradi. Elektron yozuv mashinkalariga yangi harfni kiritish esa millionlab dollarni talab etadi. Binobarin, yuqoridagi birgina «ko'chish belgisi» yordamida millionlarni tejash imkoniyatiga ega bo'lamiz. Har qanday so'zni to'g'ri talaffuz etish va to'g'ri yoza bilish savodxonlik belgisidir.

Ism va familiyalarning talaffuzi va yozilishiga jiddiy e'tibor berilishi kerak. Umuman olganda, bir harf (belgi)ga ikki tovush vazifasining yuklanishi yoki bir tovushga ikki va undan ortiq harf (belgi)ning olinishi maqsadga muvofiq emas. Shuni ham eslab o'tish joizki, hozirgi davrda jahonning yetmishdan ziyod xalqi yoki aholining o'ttiz foizi lotin yozuvi asosida yuzaga kelgan alifbodan foydalanadi. Bularning qariyb barchasida «C c» harfi mavjud bo'lgani holda 1995- yil 6- maydagi o'zgartishdan so'ng yangi alifbomizda mazkur harf mustaqil harf belgisi sifatida alifbodan chiqarib tashlandi. Alifboda yo'q harf (belgi)dan «harf birikmasi» tilga olinganligi chuqurroq mulohaza yuritishni taqozo etadi, albatta. Umuman, harflar birikmasini u yoki bu alifbo harflari sirasiga kiritilishi shartmikin?! Jahonda eng keng tarqalgan ingliz tili bunga yaqqol misol bo'la oladiku?!? Lotin yozuviga asoslangan ingliz alifbosidagi harflar o'sha ingliz tilidagi barcha tovushlar (44 ta tovush!) uchun yetarli bo'lib kelayotganligi sir emas.

Yangi o'zbek lotin alifbosi asosidagi yozuvimizda ayrim so'zlar tarkibidagi yondosh «sh»ning o'qilishida noqulayliklar bo'lishi mumkin: «Is'hoq», «mas'h», «as'hob», «mas'hub», «mus'hab», «tas'hik», «as'hal» kabi so'zlarning lotincha o'zbek alifbosida yozilishida majburan «s» bilan «h» orasiga tutuq (apostrof)ning albatta qo'yilishi, shuningdek, «mo'tadil, mo'tabar, mo'jiza, mo'jaz» kabi so'zlarning yangi o'zbek imlo qoidasiga ko'ra yozilishida tutuq belgisi qo'yilmasligining ham qoidalashtirilganligi o'qituvchilarimizni chalg'itishi, ikkilantirishi mumkin. Biroq baribir yangi

imlo qoidalariga rioya qilinishi zarur. Yangi o'zbek lotin alifbosi va imlosini o'rganish mashg'ulotlarida ayniqsa, kirillchadagi «y» va «e», «yo», «yu», «ya» harflarining yangi alifboda yozilishi hamda bir tovushni ifodalovchi «sh», «ch», «ng» harflar birikmalari kabilar yuzasidan alohida-alohida amaliy mashqlarni muntazam o'tkazib turilishi maqsadga muvofiqdir.

Xuddi shuningdek, o'zbek kirill yozuvimizdagi («**И и**») tovushi (harfi)ning yahqi o'zbek lotin yozuvida ifodalanishi bo'yicha ham (ya'ni qachon «s» yoziladi-yu, qachon «ts» yoziladi?) alohida mashqlar o'tkazib turilishi kerak. Ma'lumki, kirillchadagi «**И**» fonemasi (tovushi) jarangsiz, qorishiq (affrikativ), til oldi undosh tovushi bo'lib, u aslida o'zbek tiliga xos tovush emas. O'zbek tilida kirillchadagi «**и**» harfi rus tili va u orqali kirgan ayrim so'zlar tarkibida qo'llaniladi. Bular quyidagicha yoziladi. Birinchidan, so'z boshida, so'z oxirida, undosh tovush (harf)dan hamda old qo'shimcha (prefiks)dan keyin «s» yoziladi. Masalan: *silindr, sirk; sement, sentner; sellofan, sikl, sitata, sitrus; shpris, abzas; kvars, Barens, aksioner, rezidensiya, proporsiya, dezinfeksiya; antisiklon, telesentr, episentri* kabi. Ikkinchidan, kirillchadagi («**и**») undoshi ikki unli tovush (harf) o'rtasida kelsa, u holda yangi o'zbek lotin yozuvida «ts» tarzida ifodalanadi. Masalan: *ofitser, konstitutsiya, radiatsiya, deklomatsiya, mexanizatsiya, detsimetr, glitserin, farmatsevt, attestatsiya, intonatsiya* kabi; «ts»li so'zlar bo'g'inga bo'linganda «ts» ajratib yoziladi: *ofit-ser, konstitut-siya* kabi. Shuningdek, so'z boshida yoki so'z o'rtasida yangi o'zbek lotin yozuvida «ss» ifodalanadi: *ssenariy, inssenirovka* kabi.

Respublikamizda lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risidagi Qonunga o'zgartishlar kiritilgani (1995, 6. V)ga yettinchi yil bo'lishiga qaramay, hamon eskicha (1993, 2. IX) yozishmalar, xato va chalkashliklarga befarq qarab kelinmoqda. Bularga doir nafaqat uzoq viloyat va tumanlarimizda, balki poytaxtimizdagi tashkilot va muassasalar, oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari nomlari va ayniqsa, qator nufuzli mahkamalar, xususiyo do'konlar peshtaxtalaridagi imloviy jihatdan xato va chalkash yozilgan lavhalarining guvohi bo'lasiz. Yozuvlarimizdagi xatolar asosan, «ye, yo, yu, ya, «ts»mi yoki «s»mi? shuningdek, y, h, x, e, sh, ch» harflarining o'zbek lotincha yozilishida uchramoqda. Bunday holatlarga tuman, shahar yoki viloyat hokimiyatidagi mutasaddi xodimlargina emas, balki Respublikamizdagi barcha ziyolilar jiddiy munosabatda bo'lishlari, mas'uliyat bilan yondoshishlari maqsadga muvofiqdir.

Istiqlol O'zbekiston Respublikasining poytaxti Toshkent shahrimizning har taraflama namunali, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy markazi bo'lishiga alohida diqqat-e'tibor qaratishimiz ayni muddaodir.

TUTUQ BELGISI BOSHQA-YU, KO'CHISH BELGISI BOSHQA

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 1995- yilning 24- avgustida «O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari» tasdiqlangan bo'lib, buning 32- bandida tutuq (apostrof) belgisining qo'llanish o'rinlari keltirilgan.

Tutuq belgisining bosma va yozma shakli vergulning shakliga aynan o'xshash bo'lib, u o'zlashma so'zlar tarkibida tubandagi hollarda qo'llanadi:

Birinchidan, so'z tarkibida unidan oldin qo'yilib, shu unlini oldingi undosh tovushdan ajratib aytilishini ifodalash (bo'g'inni ajratib aytish) uchun qo'yiladi: **mas'ul, san'at, qat'iy, in'om** kabilar.

Ikkinchidan, so'z tarkibida unidan keyin shu unli tovushning cho'ziqroq aytilishini ifodalash uchun qo'yiladi: **me'yor, ta'lim, shu'la** kabilar.

Uchinchidan, **mo'tabar, mo'tadil, mo'jaz, mo'jiza** kabi o'zlashma so'zlar tarkibida «o'» unli tovushi cho'ziqroq aytilsa ham, yangi o'zbek lotin yozuvida tutuq belgisi qo'yilmaydi. Anglashiladiki, bunda ikki xil belgi, ya'ni ko'chish va tutuq belgilarining ketma-ket kelib qolmasligini e'tiborga olib, bunday so'zlar tutuq (apostrof) belgisiz yozilishi alohida ta'kidlanishi kerak.

To'rtinchidan, yangi alifbo sirasidagi yigirma yettinchi o'rinda «**sh**» tovushini ifodalash uchun «**Sh sh**» harflar birikmasi joylashtirilgan. Bu haqda «Imlo qoidalari» to'plamining 17- bandida ma'lumot keltirilgan. Biroq yonma-yon kelgan «**s**» va «**h**» harflari ikki mustaqil tovushni ifodalasa, ular (ya'ni «**s**» va «**h**») orasiga tutuq belgisining qoyilishi uning birikma emasligini, «**sh**» deb o'qilmasligining oldini oladi. Buni ham o'qitish-o'rgatish jarayonida alohida ta'kidlanishi maqsadga muvofiqdir. Misollar: **Is'hoqov, as'hob** («sohib» so'zining ko'pligi bo'lib, «suhbatdoshlar» degani), **mas'h** (tahoratda mas'h tortish), **mas'hub** («mas'hub» - birga yuruvchi, hamsuhbat), **mus'hab** («mus'hab» - kitob, risolalar to'plami; Qur'oni Karimning qadimgi qo'lyozma nusxasi), **mas'hil** («mas'hil»-yengillatuvchi, me'dani tozalovchi dori), **fis'hat** («fis'hat» - kenglik, ochiqlik), **tas'hih** («tas'hih» - tuzatish, xatolarni isloh qilish), **as'hal** («as'hal» - eng onson, qulay) kabilar.

Beshinchidan, tutuq belgisi so'zlar tarkibidagi tutuq belgisi yozilmay qolsa, u holda so'z butunlay boshqa ma'noda qo'llangan bo'ladi. Masalan: «**da'vo**» boshqa-yu, «**davo**» so'zi boshqa ma'no ifodalaydi. Shuningdek, **qal'a - qala, qa'ri - qari, qur'a - qura, san'at - sanat, sa'va - sava, sur'at -**

surat, ta'ma - tama, she'r - sher, nash'a - nasha, ta'qib - taqib, tal'at - talat kabilar.

Rus tili va u orqali o'zlashtirilgan so'zlar tarkibidagi ayirish belgisi («o») yangi o'zbek lotin yozuvida tushurib qoldiriladi. Masalan:

syezd, podyezd, razyezd, adyutant kabi so'zlarda tutuq belgisi qo'yilmaydi. Shuningdek, rus tilidan o'zlashgan so'zlar tarkibidagi «b» (yumshatish belgisi) yangi o'zbek lotin yozuvida undoshning yumshoqligini ko'rsatganida qo'llanmaydi: yanvar, iyun, albom, sentabr, oktabr kabi. Biroq «ayirish belgisi» vazifasida bo'lganida tashlanadi va y harfi qo'shiladi: **ПОСТАЛЬОН - pochalyon, ПАВИЛЬОН - pavilyon** kabi.

Tutuq (apostrof) belgisi yangi o'zbek lotin yozuvida so'z o'rtasidagina qo'llanadi; so'z oxirida qo'yilmaydi. Uning mustaqil tovush ifodalamasligi hisobga olinib, tutuq (apostrof) belgisi alifbo sirasida emas, balki imlo qoidalari bayonida ko'rsatilishi tavsiya etiladi.

Yangi alifbo sirasidagi yigirma beshinchi o'rinda «O' o'» harfi keltirilgan bo'lib, u haqda «O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari»ning 5- bandida qoida bayon etilgan: «O' o'» harfi **o'zbek, do'ppi, obro'** kabi so'zlarda orqa qator, o'rta-keng, lablangan unli tovushni ifodalash uchun yoziladi. «O' o'» harfi so'z oxirida juda kam qo'llanadi; so'z o'rtasiga nisbatan so'z boshida ko'proq qo'llanadi.

«O' o'» harfining bosma va yozma shakllari bir-biridan farq qiladi. Uning bosma shakli «O' o'» harfining katta (bosh) shaklining yuqori qismi baravarligida pastdan teskari vergul tarzida - «ko'chish belgisi» qo'yiladi. Kichik shakli esa «o» harfining o'ng, yuqori tomoniga (bosh harf baravarligida) ko'chish belgisi qo'yilishi orqali hosil bo'ladi. Masalan: **O'zbekiston, o'rik, olxo'ri** kabilar. «O' o'» harfining yozma shakli esa «o» harfining ustki (yuqori) qismiga to'lqinsimon chiziq tortilishi orqali ifodalanadi.

Anglashiladiki, «O' o'» harfining bosma va yozma shakllari farqlangan holda yozilishi maqsadga muvofiqdir, ya'ni ko'chish belgisining bosma va yozma shakllari farqli o'laroq, o'qitish-o'rgatish jarayonida e'tiborga olinishi zarur. Aks holda imloviy xatolarga yo'l qo'yib yuborilishi mumkin.

Yangi alifbo sirasidagi yigirma oltinchi harf «G' g'» bo'lib, u haqda «O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari»ning 28- bandida shunday yozilgan: «G' g'» harfi **g'oz, bag'ir, tog'** kabi so'zlarda chuqur til orqa, jarangli, sirg'aluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

Yangi alifbo sirasidagi «O' o'» harfini hosil etish uchun «ko'chish belgisi»dan foydalaniladi. G' g' harfi ham xuddi «O' o'» kabi «ko'chish belgisi» orqali yoziladi.

«G' g'» harfining ham bosma va yozma bosh va kichik shakllarining puxta o'zlashtirib olinishi imlo savodxonligini ta'minlaydi. Binobarin, **tutuq belgisi, ko'chish belgisi va chiziqcha - imlo belgisi** sifatida tushuntiriladi.

Respublikamizda lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risidagi qonunga o'zgartishlar kiritilganiga yuqorida aytganimizdek, yettinchi yil bo'lishiga qaramay, aksariyat gazeta va jurnal sahifalarida, oynayi jahon dasturlarida hamon eskicha yozishmalar, xato va chalkashliklar ko'zga tashlanmoqda. Ayniqsa, «o'» va «g'» harflarining bosma va yozma shakllarining bir-biridan farqlamaslikda hamda tutuq (apostrof) belgisi bilan ko'chish belgisining chalkashtirib yuborilishida, birining o'rnida ikkinchisini qo'yib yozilishida sodir bo'lmoqda. Bularga jiddiy e'tibor berilishi, loqayd qaralmasligi nafaqat o'qituvchilarning, balki barcha ziyolilarning burchidir. Zotan imlo - savodxonlik asosi ekanligini hech qachon yodimizdan chiqarmaylik.

Qachon «E», qachon «YE» yoziladi?

O'zbekcha so'zlarda **ya, yu, yo** tovushlari so'zning qayerida kelishidan qat'iy nazar, har vaqt ikki mustaqil nutq tovushini ifodalaydi va **ya, yu, yo** tovushlari yangi alifbo va imlodagi ikki harf ila ko'rsatiladi. Chunonchi: **yalla, bo'yamoq, yuk, buyum, yotoqxon, tayyorgarlik.**

Ammo mazkur qoidani **ye** tovushiga nisbatan hamma o'rinlarda ham tadbiiq qilib bo'lmaydi, chunki **ye** tovushi o'zbek kirill alifbosi asosidagi imlodagi ikki xil ko'rinishda qo'llaniladi:

a) so'z boshida (ayrim o'zlashma so'zlarda bo'g'in boshida kelganda) **e** harfi bilan ifodalanadi (**ekin, poema, duel**), ikki undosh o'rtasida ham **e** harfi bilan (**men, fermer**) beriladi. Bunday hollarda yangi o'zbek alifbosida bu tovush bir harf, ya'ni **e** bilan ifodalanadi. Chunonchi: **elak, sekin, duet, aeroport, aerodrom;**

b) **ye** tovushi so'z boshida (**yetim-yesir**), so'z o'rtasida unli tovushlardan keyin kelganda ikki tovush (**y+e**)ni ifodalaydi: **qayer, qayerga** kabi. Bunday hollarda yangi alifbo va imlodagi mazkur ikki tovush ikki harf bilan ko'rsatiladi: **yetakchi, yetim-yesir, pyesa** kabi.

O'zbek tiliga Yevropa tillaridan o'tgan o'zlashma so'zlarda **ya, yu, yo**, **ye** harflari ikki xil holatda qo'llaniladi:

a) bu harflar so'zning boshida yoki unli tovushdan keyin kelganda (xuddi o'zbekcha so'zlarda bo'lganidek) ikki tovushni ifodalaydi; yangi o'zbek tili imlosida ikki harf bilan beriladi: **yasli, yubiley, zayom, priyomnik;**

b) **ya, yu, yo, ye** harflari ayirish belgisidan hamda ayirish belgisi vazifasida qo'llanilgan yumshatish belgisidan keyin kelganda ikki nutq tovushini bildiradi. Bunday hollarda yuqoridagi harflar ifodalagan tovushlar ikki harf bilan beriladi. Chunonchi: *bilyard, atelye, sudya, felyeton, syezd, syomka, intervyu* kabi.

Rus tili imlosida boshqa tillardan o'tgan **pochtalyon, batalyon, medalyon, pavyon** kabi so'zlarda ayirish belgisi vazifasida qo'llangan yumshatish belgisidan so'ng (yuqoriroqda aytib o'tilganidek) yangi o'zbek yozuvida yo harflari bilan beriladi. Yangi o'zbek lotin yozuvida yumshatish belgisi umuman qo'llanmaydi.

Rus tilidagi o'zlashma so'zlarda so'zning boshida va unli tovushdan keyin **yo** harfi ifodalagan tovushlar yo harflari bilan yoziladi: *mayor, yod, Nyu-York* kabi.

Yana bir bor ta'kidlab o'tishni istardikki, ruscha imloda undosh tovush (harf)dan keyin kelganda **ya, yu, yo** harflari bir unli tovushni bildirib, o'zidan oldinga undosh tovushning yumshoq aytilishiga ham ishora qilinadi. Bunday hollarda **ya, yu, yo** harflari yangi imloda **a, u, o** harflari bilan beriladi. Masalan: *oktabr, sentabr, valuta, Ludmila, flaga, dirijor, rejissor* kabi.

Bunday so'zlarning mazkur qoidalar doirasiga kirmaydiganlari ham bor. Chunonchi: **ya, yu, yo** harflari undosh tovushlardan keyin kelganida ham ularning talaffuzi e'tiborga olinib, mazkur harf-tovushlar o'zbek yozuvida ikki harf bilan beriladi. Chunonchi: *slavyan, buryat, aktyor, byuro, byust* kabi.

Bu kabi so'zlarni yozishda xato qilmaslik uchun «O'zbek tilining imlo lug'ati» (2002- y.)ga murojaat qilish kerak.

Qachon sh, qachon SH yoziladi?

«O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari» (Toshkent, «O'qituvchi», 1995)ning 17- bandida **Sh sh**, 19- bandida **Ch ch** va 26- bandida esa **Ng ng** harflar birikmasi imlosi qoidalari keltirilgan. Binobarin, joriy etilayotgan yangi o'zbek lotin alifbosini g'arb tillari uchun yaratilgan kompyuterga moslash talabi tufayli yuqoridagi kirillcha «Ш ш, Ч ч, Нг нг» fonemalarini yangi o'zbek lotin yozuvida harflar birikmasi (**sh, ch, ng**) bilan qabul qilingan.

Yangi o'zbek yozuvida harflar birikmasining bosh (katta) harfi **Sh, Ch, Ng** shaklida yoziladi. Tilimizdagi «**Ng ng**» undoshi so'z boshida hech qachon qo'llanmaydi. Shu sababli «**ng**» tovushi uchun bosh harf shakli

asli kerak emas. Biroq matbuotda sarlavhalarni, shiorlarni, shuningdek, tashkilot va muassasalar, korxonalar nomlarini, peshlavhalar sidirg'asiga bosh harf bilan yozishga odatlanganligimiz tufayli o'rni bilan mazkur tovush uchun ham bosh harf shakli zarurdir.

Yuqoridagi holatlar yangi o'zbek lotin alifbosi harflari sirasida alohida eslatma tariqasida keltirilmaganligidan ayrim risolalarda, ko'cha-ko'ydagi peshlavhalarda, yirik-yirik idoralar nomlarida so'z tarkibidagi «**Sh, Ch, Ng**» harflar birikmasining (bosma bosh shaklida) ikkinchi qismi (komponenti) kichik harf shaklida yozilib, xatoga yo'l qo'yilmoqda. Shuning uchun yangi o'zbek yozuvida so'z tarkibidagi harflar sidirg'asiga bosh harf bilan yozilganda, yuqoridagi harflar birikmalari **SH, CH, NG** shaklida yozilishi zarurligi tavsiya etiladi. Masalan: **TOSHKENT MEHMONXONASI, QURILISH BANKI, «SHUHRAT» firmasi, CHIRCHIQ shahri, «TONG» firmasi** kabilar.

Yangi o'zbek yozuvida harflar birikmalarining yozilishi qoidalariga to'liq rioya etilishi imlo savodxonligini ta'minlaydi.

Familiya yasovchi qo'shimchalar imlosi

O'zbek tilida familiyalar odatda - **ov (-ova), -ev (-eva), -yev (-yeva)** qo'shimchalari bilan hosil bo'ladi:

1. So'z asosi unliharflar (**a, e, i, o, u, o'**) bilan tugallansa, **-yev (-yeva)** qo'llanadi. Masalan: **Sa'dullayev, Hikmatullayev, Turdiyeva, Vafoyeva, Mirzayeva, Shodiyeva** kabilar.

2. So'z asosi **-sh, -ch, -y** bilan tugallansa, **-ev (-eva)** qo'llanadi.

Masalan: **Yo'ldosheva, Ergasheva, Qilichev, Olimboyeva** kabilar.

3. So'z asosi boshqa undosh tovush (harf)lar bilan tugallansa, **-ov (-ova)** qo'llanadi. Masalan: **Muradov, Alimov, Tursunova, Nazarov** kabilar.

Eslatma: O'zbek tilida ota ismidan so'ng **o'g'li, qizi** so'zlaridan ham foydalanish mumkin: **Eldor Durbek o'g'li, Feruza Ismoil qizi** kabilar.

O'QISH, YOZISH KO'NIKMA

VA MALAKALARINI

MUSTAHKAMLASH UCHUN

M A T N L A R

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DAVLAT MADHIYASI*

*Mutal (Mutavakkil) Burhonov musiqasi,
Abdulla Oripov so'zi*

Serquyosh, hur o'lkam, elga baxt, najot,
Sen o'zing do'stlarga yo'ldosh, mehribon!
Yashnagay to abad ilm-u fan ijod,
Shuhrating porlasin toki bor jahon!

NAQAROT:

Oltin bu vodiylar - jon O'zbekiston,
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!
Ulug' xalq qudrati jo'sh urgan zamon,
Olamni mahliyo aylagan diyor!

Bag'ri keng o'zbekning o'chmas iymoni,
Erkin, yosh avlodlar senga zo'r qanot!
Istiqlol mash'ali, tinchlik posboni,
Haqsevar, ona yurt, mangu bo'l obod!

NAQAROT:

Oltin bu vodiylar - jon O'zbekiston,
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!
Ulug' xalq qudrati jo'sh urgan zamon,
Olamni mahliyo aylagan diyor!

Savol va topshiriqlar

1. O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasining muallifi kim?
Bastakori-chi?
2. Madhiyaning
Ulug' xalq qudrati jo'sh urgan zamon,
Olamni mahliyo aylagan diyor!
satrlarida xalq kuch-qudrati, vatan sha'ni bilan bog'liq his-tuyg'ular
qay tarzda o'z ifodasini topgan?
3. Davlatimiz madhiyasini yod oling!

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DAVLAT GERBI

O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining X sessiyasida 1992- yil 2- iyul kuni tasdiqlangan.

Gerbning markazida baxt va erksevarlik ramzi - qanotlarini yozgan Humo qushi baxtga yetaklovchi timsol sifatida xalqimiz tomonidan qadrlangan. Ulug' bobomiz Alisher Navoiy Humoni jonzoqlarning insonga eng mehriboni, deb ta'riflagan.

Quyosh aksi esa hayot yo'llari doimo charog'on, yorug' bo'lishi Respublikamizning serquyoshligini bildiradi.

Boshhoqlar - rizq-ro'zimiz belgisi, paxta aks ettirilishi O'zbekiston xalqini butun dunyoga tanitirgan, hurmatga sazovor qilgan muhim belgilaridandir. Boshhoqlarni, paxta chanoqlarini qamrab olgan O'zbekiston bayrog'i Respublikamizda yashaydigan butun xalqimiz birligi mazmunida yoritilgan.



Ushbu ramz va timsollar xalqimizning tinchlik, yaxshilik, baxt-sodat, farovonlik yo'lidagi orzu-umidlarini ifodalaydi. Gerbning pastki qismidagi Respublika Davlat bayrog'ini ifodalovchi uch rangdagi chambar bandiga «O'zbekiston» so'zi bitilgan.

«Gerb» so'zi nemischa «erbo» so'zidan olingan bo'lib, shohlar va hukmdorlarga davlat, sarhad, hudud va boshqa nasldan-naslga meros qoluvchi mulk belgisini anglatadi.

Bundan 2500 yil muqaddam Erondan Oltoygacha qadar cho'zilgan ulkan sarhadda hukm surgan O'g'uzxon davrida ham turkcha «tamg'a» so'zi aynan shu ma'noni bildirar edi. XII asrning mashhur tarixchisi Rashiddin Hamadoniy «Tanlangan tarixlar» nomli kitobida shahodat berishicha, O'g'uzxon o'z mol-mulkini o'g'illariga ulus sifatida kichik davlatlarga bo'lib, in'om etgan. Ushbu davlatlar hukmdorlari ham o'zlarining xonlik tamg'alariga ega edi.

Savol va topshiriqlar

1. O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi Oliy Majlisning nechanchi sessiyasida tasdiqlangan, qachon?
2. «Gerb» so'zining lug'aviy ma'nosini izohlang.
3. Davlatimiz gerbida o'zbek millatiga xos xususiyatlar aks etganmi?



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DAVLAT BAYROG'I

O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'i O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining navbatdan tashqari o'tkazilgan VII sessiyasida 1991- yil 18- noyabr kuni tasdiqlangan.

O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'ining ramzlari Vatanimiz tuprog'iga avval mavjud bo'lgan qudratli davlatlarning bayroqlariga xos eng yaxshi an'analarni davom ettiradi, ayni vaqtda Respublikamizning tabiiy, milliy va madaniy xususiyatlarini o'zida aks ettiradi.

1. Bayroqning moviy - ko'k rangi moviy osmon va tiniq suv, ya'ni yer-u ko'kdagi hayot manbalari ramzidir. Timsollar tilida bu - yaxshilikni, donishmandlikni, halollikni, shon-shuhrat va sadoqatni bildiradi. Binobarin, Amir Temur davlati bayrog'ining rangi ham moviy rangda edi.

2. Oq rang - tinchlik, poklik, beg'uborlik, soflik, orzu va xayollar tozaligi, ichki go'zallikka intilishning timsolidir. U kun charog'onligi va koinot yoritgichlari bilan uyg'unlashib ketadi. Yangi, mustaqil davlatimiz baland dovonlardan oshishi kerak. Bayrog'imiz bizga oq yo'l tilaydi.

3. Yashil rang - tabiat, yashnab turgan hayot va hosildorlik ramzi. U ko'pgina xalqlarda navqironlik, umid va shodumonlik timsoli hisoblanadi. Ayni vaqtda butun jahonda atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan xayrixohligimiz ham yashil rang bilan ifodalanadi.

4. Qizil chiziqlar - har bir tirik vujudda mavjlanib turgan hayotiy kuchlar va bizning yaxshi niyatlarimizni yer-u osmon bilan bog'lab turadigan jonli rishtalar ramzidir.

5. Yangi oy - ko'p asrlik tarixiy an'analarimiz bilan bog'liq. U yana qo'lga kiritilgan mustaqilligimiz ramzidir. Ayni vaqtda yangi oy va yulduz bulutsiz osmon timsoli. 12 raqami tabiatan mukammal raqam hisoblanadi, shuning uchun ham yulduzlar soni 12 ta. Bizning o'n ikki yulduzga bo'lgan e'tiborimiz O'zbekiston sarhadidagi qadimgi davlatlar ilmiy tafakkurida «Nujum ilmi» taraqqiy etganligi bilan ham izohlanadi. Davlat bayrog'imizdagi o'n ikki yulduz tasvirini o'zbek xalqi madaniyati qadimiyligi, uning komillikka, o'z tuprog'iga saodatga intilishi ramzi sifatida tushunish lozim.

Bayrog'imiz o'tmishimiz, hozirgi hayotimiz va kelajagimiz porloqligining ramzidir.

Savol va topshiriqlar

1. O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'idagi ko'k, yashil va oq ranglarda qanday ramziy ma'nolar ifodalangan?

2. Bayroqdagi yarim oy va 12 yulduz nimaning ramzi?

3. Bayroqchamizning rangi
Moviy, oq hamda yashil.
Ko'rsa ko'zlar quvonar,
To'lqinga o'ranar dil.

Mazkur satrlarda milliy g'urur, iftixor tuyg'ulari qanday aks ettirilgan?

HAYOT BILAN HAMNAFAS

(Islom KARIMOVning «O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida» nomli kitobidan parchalar)

Mustaqillik yillari - o'z o'tmishimizni, o'z madaniyatimizni xolisona bilib olish davridir. Bu - jahon hamjamiyati, tarix oldidagi vazifamizni anglab olish davridir.

Mustaqillik yillari - yosh demokratik davlatni faol qurish, uning siyosatini ishlab chiqish davridir. Bu davr ma'naviy uyg'onish va milliy o'zligini anglashning o'sish davridir. Bu - ozodlik ruhi bilan, o'z kuchlariga, mamlakatning, xalqning yorqin kelajagiga ishonch bilan to'lib-toshgan davrdir.

Xalqimiz sarchashmalarining ko'zlari qaytadan ochilganligi, jahon madaniyati yutuqlariga zo'r hissa qo'shgan buyuk ajdodlarimizning madaniy va ma'naviy merosi teranligi va chuqurligi anglab olinganligi, har bir avlodning o'z o'tmishiga, oliyanob milliy va diniy an'analarga hurmat bilan qarash, ularni asrab-avaylash ruhida tarbiyalanayotganligi, ayni chog'da hozirgi zamon jahon sivilizatsiyasi va ma'naviyati qadriyatlarini o'zlashtirish va ularga oshno bo'lish zarurligi ravshan anglab yetilganligi - mana shularning hammasi hayotbaxsh bir zamindirki, bizning yangilanish va xalqimizning milliy o'zligini anglashishini oshirish, aholining siyosiy yetukligi va faolligini kuchaytirish borasidagi siyosatimiz mana shu zaminga tayanadi.

Har bir kishining taqdiri ko'p jihatdan uning kasb-mahorati, ma'naviy e'tiqodi, jo'shqin o'zgarib borayotgan yangi muhitga moslasha bilish qobiliyati bilan belgilanadi.

Chinakam sivilizatsiyalashgan bozor munosabatlari, bozor vositalari faqat yuksak ma'naviyat negizida, yuksak axloqlilik va vatanparvarlik negizlarida barpo etilishi mumkin.

Bozor munosabatlariga o'tish paytida obyektiv sharoitni - xalqning turmush tarzi, ahvol-ruhiyati, an'analari madaniyatini e'tiborga olmasdan bo'lmaydi.

Ma'naviy mustaqillik va o'ziga beklik, ezgulik, qalb saxiyligi va bag'ri kenglik xalqimizga xos xususiyatdir. Bu go'zal fazilatlar yangi iqtisodiy va turmush sharoitlarida sinovdan o'tdi. Xalqimizning eng yaxshi xislatlari, o'z yeriga, yurtiga mehr-muhabbati, vatanparvarligi ma'naviy birlikni mustahkamlaydi.

Buyuk ajdodlarimizning ruhi nurafshon qilib turgan, bizga ilhom berayotgan va egnimizni but, qornimizni to'q qilayotgan shu muqaddas zaminga muhabbat bamisoli bitmas-tuganmas chashmadek qaynab turibdi. Inson butun vujudi bilan shu yurtga ta'zim qiladi.

Biz, ozod O'zbekiston fuqarolari uchun mustaqillikning muqaddas ramzlari - Davlat Gerbi, Davlat Bayrog'i, Davlat Madhiyasi azizdir. Ular ma'naviyatning eng muhim timsollari hamdir.

Pok va sofdil shaxsni tarbiyalashda, ona tilini qayta tiklashda hech kim va hech narsa oila bilan tenglasha olmaydi. Biz xalqning, ayniqsa, yoshlarning ma'naviy-ruhiy jihatdan qayta qad rostlashining jo'shqin o'chog'i bo'lgan eng oliyjanob ma'nodagi mahalla, qo'ni-qo'shnichilik, o'zaro yordamlashuvning ahamiyatini ko'proq qadrlay boshladik.

Yosh avlodlarning insoniyat daholari bo'lgan buyuk ajdodlarimizga munosib bo'lish yo'lida tobora kuchayib borayotgan intilishini ham yangilanishning salmoqli yakuni sifatida ta'kidlab o'tmoq kerak.

Faqat ma'naviy sog'lom, kuchli jamiyatgina islohotlarga tayyor bo'lishi mumkin. Mulkdorlik huquqi va tadbirkorlik tuyg'usi mamlakat aholisi orasida tobora keng va chuqur yoyilmoqda, odamlar ruhiyati va fe'l-atvorida katta o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda. Tayyorga ayyorlik va yalqovlik mayllari darrov bo'lmasa-da, ba'zan qiyinchilik bilan bo'lsa-da, barham topmoqda. O'qimishlilik tushunchasi yangi ma'no kasb etmoqda.

O'zbek xalqining butun madaniy dunyoda ma'lum va mashhur bo'lgan Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Muhammad Bobur, Imom al-Buxoriy, at-Termiziy, Bahouddin Naqshband, Xoja Ahmad Yassaviy kabi buyuk ajdodlari ijodiy merosi va hayoti jasoratini hurmat bilan esga olish jamiyat turmushidagi odat va milliy shon-sharaf manbayi bo'lib qoldi.

Biz tariximiz, madaniyatimizni o'zimiz uchun va butun dunyo uchun ham qayta tiklayapmiz.

Ilg'or ziyolilar, olimlar, yozuvchilar, san'at va madaniyat arboblari, ruhoniylar isloh qilish siyosatini astoydil yoqlab chiqmoqdalar. Shu boisdan ham bizning ma'naviy hamda aqliy imkoniyatlarimiz beqiyos mustahkamlandi.

Jamiyat islohotlarning birinchi bosqichidan sivilizatsiyalashgan, inson sari yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini ma'naviyat, axloqiylik va madaniyatning mustahkam poydevoriga qurish zarur, degan xulosa chiqardi. Bular - O'zbekistonda tinchlik, barqarorlik va millatlararo totuvlikning hayotbaxsh manbalaridir.

Faylasuflardan biri, ma'naviyat - insoniylikka olib boradigan yo'ldir, degan ekan. Binobarin, mustaqil O'zbekiston bugungi kunda o'z kelajagiga xuddi shu yo'ldan, ezgulik va insoniylik yo'lidan odim tashlamoqda.

Maqsadlarimizga erishish, yangi jamiyatni qurish, islohotlarning taqdiri qanday intellektual kuchlarga egaligimizga, yoshlarimiz qanday madaniy va professional saviyaga, qanday ideallarga e'tiqod qilishiga, ma'naviy jihatdan qanchalik boyishiga bog'liqdir.

Yuqori ma'lumotli, madaniyatli hamda professional jihatdan yetuk shaxsgina iqtisodiy erkin bo'lishi, demokratik va tub iqtisodiy o'zgarishlarning ishonchli tayanchi bo'lishi mumkin.

Bilimdon, professional jihatdan savodli hamda g'ayrat-shijoatli shaxslarni, o'z mamlakatining chinakam vatanparvarlarini tarbiyalay oladigan, ularni

buyuk milliy madaniyatning ulkan ma'naviy merosi bilan boyita oladigan, jahon fani va madaniyati durdonalaridan bahramand eta oladigan mamlakatgina, millatgina buyuk kelajakka erishishi mumkinligini yoddan chiqarmaslik lozim.

Milliy tiklanish yo'li yuqori savodxonlik, yuksak madaniyat orqali o'tadi. Shuning uchun ham ma'lumot darajasi, professional tayyorgarlik darajasi XXI asr arafasida bizning ijtimoiy rivojlanishimizning o'lchovi bo'lib qolmog'i kerak. Bu - islohotlarning belgilangan yo'ldan borishini muvaffaqiyatli amalga oshirishning eng yaxshi kafolatidir. Bu - sarflangan mablag'lardan vaqti kelib eng ko'p foyda olinadigan yo'nalishdir.

Biz yigit va qizlarimizning ma'lumotli kishi uchun zarur bo'lgan barcha bilimlarni egallay olishlariga, yangi sharoitlarga tez va mashaqqatlarisiz moslashishlariga imkon berishimiz kerak.

Xalq ta'limining butun tizimini yanada qat'iyat bilan va tezroq qayta qurish zarur. Hozirgi sharoitda xalq ta'limi tizimini, uning barcha bo'g'inlarini e'tiborli va yuqori haq to'lanadigan sohaga aylantirish kerak.

Bolalar bilan maktabdan tashqari ishlarni tashkil qilishga, kishilarda, eng avvalo, yosh avlodga yuqori madaniyat va ma'lumotni, mehr-oqibat va halollikni, axloqiy poklikni shakllantirishi lozim bo'lgan ijtimoiy-madaniy muassasalar - kutubxonalar, teatrlar, muzeylar, ko'rgazma zallari va boshqalarning moddiy bazasini mustahkamlash va ularni rivojlantirishga alohida e'tibor berish zarur.

Demokratik jamiyat - bu, eng avvalo, fuqarolik jamiyatidir. Chinakam demokratiyaning oliy mazmuni - shaxslararo, millatlararo, davlat va shaxslararo ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni uyg'unlashtirishdan iborat. Bunda inson va jamiyat, jamiyat va davlat hokimiyati tinch-totuv yashaydi.

Respublika aholisi orasida ko'pchilikni tashkil qilgan o'zbek millatining muqaddas burchi ona tilini, o'z milliy madaniyati va tarixini tiklashdangina iborat emas, balki birgalikda hayot kechiruvchi kam sonli xalqlarning taqdiri uchun, ularning o'ziga xos madaniy-ma'naviy xususiyatlarini saqlab qolish

uchun, kamol topishi va o'zligini namoyon etishi uchun ularga teng sharoit va imkoniyatlar yaratib berish borasida mas'ul bo'lishdan ham iboratdir.

O'zbekiston bundan buyon ham ijtimoiy kafolatlari kuchli bo'lgan chinakam demokratik, ko'p millatli davlat bo'lib qolaveradi.

Savol va topshiriqlar

1. Islom Karimovning «O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida» kitobidan olingan «Hayot bilan hamnafas» nomli parchalarda iqtisodiyotimizga xos qanday xususiyatlar aks etgan?

2. Prezidentimiz Islom Karimovning mazkur asarlaridan olingan parchalarning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy ahamiyatini so'zlab bering.

TOSHKENTNING O'N IKKI DARVOZASI

Movarounnahrning eng qadimiy shaharlaridan biri bo'lgan Shosh (Toshkent) o'zining uzoq va qiziqarli tarixida o'zaro feodal urushlar hamda sarijij bosqinchilar istilosi natijasida necha bor buzilib, necha bor qayta tiklangan. Sharq mamlakatlarida, jumladan, O'rta Osiyoda yirik shaharlar qo'rg'on bilan o'rab olinganligi, ularning bir necha darvozasi bo'lganligi bizga qadar yetib kelgan tarixiy ma'lumotlardan ayon. Quyida ko'hna Toshkentning maxsus nomlar bilan atalgan darvozalari haqida fikr yuritiladi.

O'tgan XVIII-XIX asrlarda bu shaharning 12 ta darvozasi bo'lib, bular: Samarqand, Ko'kcha, Chig'atoy, Sag'bon, Qorasaroy, Taxtapul, Labzak, Qashqar, Beshyog'och, Qo'qon, Qaymast va Komolon darvozalaridir. Ushbu darvozalardan kirilgach, eng avval, guzarli keng maydonga chiqilgan, bu guzarog'ohlar 1920- yillarning oxiriga qadar juda obod bo'lgan. Navro'z va ko'plab milliy bayramlar, har xil sayllar, xalq yig'inlari o'tkazilgan bu maydonda choyxona, oshxona, novvoyxona, sartaroshxona, kosibchilik, karvonsaroy, bozor, qassoblik va baqqollik do'konlari joylashgan edi. Darvozalardan boshlanib, shahar markazidagi katta bozorga olib boruvchi ko'chalar yo'l-yo'lakay juda ko'p kichik-kichik ko'chalarga tarmoqlashib ketardi. Ko'chalar eltgan shahar bozori faqat savdo-sotiq uchungina xizmat qilib qolmay, balki shahar xalqi hordiq chiqaradigan joy ham edi.

Shahar hokimining turli farmonlari ma'lum belgilangan joylardan tashqari, shu bozorda ham jarchilar tomonidan e'lon qilinardi, bozor maydonida dorbozlik, sarbozlik, o'yin-kulgi va boshqa turli tomoshalar namoyish etilardi.

Afsuski, shaharning ko'hna darvozalari shu kunlarda saqlanib qolmagan. Lekin ularning qayerda joylashganligi to'g'risida yetarli ma'lumotlar bor.

Darvozalar shaharning hozirgi o'zaro joylashishiga nisbatan taxminan quyidagi o'rinlarda joylashgan: Komolon - hozirgi «Baxt» ko'chasida; Qaymast - O'zbekiston ko'chasidan 9- yanvar ko'chasiga burilish yerida; Qo'qon - Mustaqillik maydonida; Beshyog'och - Beshyog'och dehqon bozori bilan madaniyat va istirohat bog'i oralig'ida; Qashqar - Qashqar mahallasi guzari (hozirgi Markaz - 4 mikrorayonida); Labzak - Xurshid ko'chasi bilan Anhor kesishgan joyda; Taxtapul - Sobir Rahimov ko'chasidagi Kaykovus anhoriga qurilgan ko'prik yaqinida; Qorasaroy - Qorasaroy ko'chasining guzarida; Sag'bon - Sag'bon ko'chasidagi 11- maktab bilan Kaykovus oralig'ida; Chig'atoy - Chig'atoy ko'chasidagi Chig'atoy darvozasi guzarida; Kocha - Ko'kcha guzarida; Samarqand - hozirgi «Samarqand darvozasi» ko'chasining guzari atrofida bo'lgan.

Bu darvozalar faqat qamal paytlaridagina emas, balki tinch vaqtlarda ham har kuni qorong'i tushishi bilan berkitib qo'yilar edi. Ertalab barvaqt ochilar, karvonlar, sayyohlar va darveshlar, boyonlar va amaldorlar yayov va faytunlarda viqor bilan kech oqshomga qadar kirib-chiqib turganlar. Doimo maxsus soqchi (darvozabon)lar qo'riqlab turgan bu darvozalarning tarixi «chortoq» shaklida bichilib, pishiq chorsi g'ishtdan murakkab qorishmadan qurilib, tomi gumbazli qilib yopilgan. Me'morlar uning oldi ko'rinishiga alohida e'tibor berib, ulkan peshtoqli qilib loyihalashtirganlar.

Kechqurun darvozalar taqa-taq yopilib, shahar ichkarisiga tashqaridan hech kim kiritilmagan. Keluvchilar kim bo'lishidan qat'iy nazar darvoza tashqarisida tunab qolishga majbur bo'lishgan. Qadimgi darvozalarga ishlangan eshiklar archa yog'ochlaridan yasaliib, sirtining ba'zi yerlariga bezak sifatida metall ham qoplanar hamda turli xildagi islmiy va girexiy naqshlar bilan milliy shaklda bezatilar edi. Bu eshiklarga yaqinlashgan har bir kishi zahmatkash ustalarning mahoratiga, aql-zakovatiga tahsinlar aytishardi.

Go'zal shahrimizning o'n ikki darvozasining o'n ikki kaliti nusxalari hozirgi kunda O'zbekiston xalqlari tarixi muzeyining ko'rgazma bo'limida tartib bilan terib qo'yilgan. Ularning oltindan yasalgan asl nusxalari esa Moskvada - sobiq SSSR Davlat bankida saqlanmoqda.

Respublikamizda qayta qurish, oshkoralik, mustaqillik amalga oshirilayotgan shu kunlarda, ko'hna Toshkent shahar darvozaridan boshlanadigan ko'chalarga shu darvoza nomlari berilib, marmar toshlavhalar o'rnatilsa hamda shahar darvozalari zamonamizga moslab tiklansa, nur ustiga a'lo nur bo'ladi.

Savol va topshiriqlar

1. Toshkentning o'n ikki darvozasi nomlarini ayting.
2. O'n ikki darvoza nomi bilan yuritilishining sababi nima?

TARIXNING TAKRORLANISHI

1. Napoleon 1760- yilda tug'ilgan, Gitler esa 1889- yil. Bular o'rtasidagi farq - 129 yil.

Napoleon 1804- yilda hokimiyat tepasiga chiqqan, Gitler 1933- yil. Farqi - 129 yil.

Napoleon Rossiyaga 1812- yili hujum qilgan edi. Gitler 1941- yili urush boshladi. Farqi - 129 yil.

Har ikkisi hokimiyat tepasiga 44 yoshda o'tirgan.

Har ikkisi ham 52 yoshda Rossiyaga hujum qilgan.

Har ikkisi ham Rossiyaga qarshi urushda sharmandalarcha yengilgan.

2. A. Linkoln 1860- yilda birinchi AQSH prezidenti bo'lgan, Kennedi esa 1960- yilda. Farqi - 100 yil.

Har ikkisi ham juma kuni o'ldirilgan.

Linkoln o'limidan keyin Jonson nomli kishi prezident bo'lgan, Kennedi o'limidan keyin ham Jonson hokimiyat tepasiga keldi.

Har ikkisi ham AQSHning janubiy shtatidan, demokrat va hokimiyatga o'tirgunga qadar senator bo'lgan.

Linkoln o'limidan keyin AQSH prezidenti qilib saylangan Jonson 1808- yilda tug'ilgan edi. Kennedi o'limidan keyin AQSH prezidenti bo'lgan Jonson 1908- yilda tug'ilgan. Bularning o'rtasidagi farq - 100 yil.

Linkolnning qotili Uils 1829- yilda tug'ilgan edi. Kennedining taxminiy qotili Osvald 1929- yili tug'ilgan. Farqi - 100 yil.

Har ikki qotil ham sud bo'lgunga qadar o'ldirilgan.

Linkolnning Kennedi nomli sekretari uning o'limidan bir kecha oldin, «Ertaga teatrga bormang», deb iltimos qilgan edi. Prezident Kennedining sekretari Linkoln ham Dallas shtatiga qiladigan safarini keyinga qoldirishni maslahat bergan edi.

IQTISOD

Iqtisod deb pul va mol kabi ne'matlarning qadrini bilishga aytiladi.

Mol qadrini biluvchi kishilar o'rinsiz yerga pul sarf qilmaydi. O'rni kelganda pulni ayamaydi.

Saxovatning ziddi baxillik bo'lgani kabi iqtisodning ziddi isrofdir. Alloh taolo isrof qiluvchilarni suymas.

Iqtisodga rioya qilgan kishilar hamma vaqt tinch va rohatda yashaydilar (Abdulla Avloniy).

SOLIQ NIMA?

Soliqlar davlatning korxonalar va tashkilotlar, har bir fuqaro topgan daromadidan foiz miqdorida undiriladigan pul mablag'idir. Soliqlar Davlat budgetini hosil qiladi.

Davlat sarmoyasi iqtisodni bir tekis yurgizish imkonini beradi.

Minglab tadbirkor va korxonalar, tashkilotlar, firmalar o'z foydalaridan davlatga soliq to'laydilar. O'z navbatida davlat xizmatchilariga undan maosh to'laydi va boshqa zaruriy xizmatlar uchun to'lovlarni amalga oshiradi.

Davlat budgeti hukumatning har yilgi daromad va xarajatlari hisobidir. Davlat budgetining asosiy vazifasi moliyaviy vositalar yordamida iqtisodni samarali rivojlantirish va umumdavlat miqyosidagi vazifalarni hal qilish uchun sharoit yaratishdir.

Budgetning o'zi ikki qismdan iborat bo'ladi, ya'ni daromad va xarajatlarni tashkil etadi. Olingan soliqlar davlat budgetining daromadi bo'lib, u obodonlashtirish, madaniyat ishlari, sog'liqni saqlash, maktab-maorif, ijtimoiy ta'limot sohasidagi chora-tadbirlar uchun ishlatiladi.

«Hadis» nima?

Hadis islom dini ta'limoti bo'yicha Qur'ondan keyin turadigan ikkinchi muqaddas manba bo'lib, Muhammad payg'ambarning hayotlari va faoliyatlari, shuningdek, uning diniy va axloqiy ko'rsatmalarini o'z ichiga oladi. Muhammad payg'ambarimiz biror gap aytgan yoki biror ishni qilib ko'rsatgan bo'lsalar, yoxud boshqalarning o'zlaricha qilayotgan biror ishini ko'rib, uni man etmagan bo'lsalar, shu uch holatning har biri sunnat hisoblanadi. Ana shunday xatti-harakatlar yoki ko'rsatmalar haqidagi rivoyat «Hadis» deb yuritiladi.

Hadislarda ibodatning tartib-qoidalari va ularni mukammal bajarishga da'vat etish bilan birga, axloq-odobga doir ko'rsatmalar, insoniy fazilatlar ham keng tashviq qilinadi, insoniylik sha'niga dog' tushiradigan razil sifatlar qoralanadi.

Shunisi e'tiborga loyiqki, islom olamida mashhur va eng ishonchli deb e'tirof etilgan oltita hadislar to'plami mualliflarining aksariyati Markaziy Osiyodan chiqqan. Bulardan Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy (810-870), Abu Iso Muhammad ibn Iso at-Termiziy (824-892) va boshqalar hadis ilmining taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shganlar.

Hadis ilmi bilan shug'ullangan olimlar - muhaddislar, hadisni hikoya qiluvchilar esa roviylar, deb yuritiladi.

«Hadis»dan namunalar

Munofiqlik belgisi uchtdir: yolg'on so'zlash, va'dasining ustidan chiqmaslik va omonatga xiyonat qilishdir.

Agar uch kishi bo'lsangiz, ikkitalaringiz alohida, uchinchi shaxsga eshittirmay pichirlab gaplashmanglar, chunki bu uni ranjitadi.

Dunyodan o'tib ketganlarning faqat yaxshi sifatlarini yod etinglar. Yomon sifatlaridan tilingizni tiyingizlar.

Odamlarga yaxshilik qilish va qarindoshlar bilan yaqin aloqada bo'lib, hol-ahvol so'rashib turish - bu savobi tez tegadigan xayrli ishlardandir. Zalm va qarindoshlardan uzilib ketishlik esa jazosi tez bilinadigan yomon ishlardandir.

Hamma ishlaringizda to'g'ri bo'lingizlar, odamlarga muomalada kulqingiz chiroyli bo'lsin.

Ochlarga ovqat bering, bemorlarni borib ko'ring va hojatmandning hojatini chiqaringizlar.

Kasbning eng yaxshisi - kishining o'z qo'li bilan bajaradigan ishi halol savbdadir.

Uyquga ketishdan oldin chiroqlarni o'chirib, darvozalarni berkitib, suv idishlari va oziq-ovqatlarning ustini yopib qo'yingizlar. Yopgani narsa topolmasangizlar, idishlar ustiga biror cho'p bo'lsa ham tashlab qo'yingizlar.

Uchrashganda qaysi birlaringiz birinchi bo'lib salom bersangiz, o'sha odam Tangriga ham itoatliroqdir.

Beshta narsadan oldin beshta narsani g'animat biling: o'limdan oldin tiriklikni, betoblikdan oldin salomatlikni, bandlikdan oldin vaqtni, keksalikdan oldin yoshlikni, faqirlikdan oldin boylikni g'animat bilingizlar.

Bir-birlaringiz bilan salomlashib yuringizlar. Shunda o'rtalaringizga mehr-u muhabbat uyg'onur.

Sadaqaning afzali chanqoq odamlarga suv ulashmoqlikdir.

Kingaki aql-u idrok nasib etilgan bo'lsa, demak u omadlidir.

Inson xatoni ko'proq o'z tili bilan sodir qiladi.

Avvalo onangizga, yana onangizga va yana onangizga, so'ng otangizga yaxshilik qilingizlar.

Tangri birovlariga qovog'ini solib qaraydigan kishilarni yoqtirmaydi.

Gaplarning yomoni - bu yolg'onchilikdir, yolg'onni hazil bilan ham, jiddiy ham gapirib bo'lmaydi. Rostgo'ylik ezgulikka boshlaydi, ezgulik esa jannatga. Yolg'onchilik yovuzlikka boshlaydi, yovuzlik esa jahannamga.

Rostgo'y odamga yaxshi baho, yolg'onchi odamga yomon baho beradilar. Rostgo'y odam chin so'zi bilan borib-borib Tangri huzurida siddiq (so'zida sodiq) deb yozib qo'yiladi. Yolg'onchi ham borib-borib uning huzurida kazzob (yolg'onchi) deb yozib qo'yiladi. Chaqimchilik ham yomon illatdir, chunki u tufayli odamlar o'rtasi buziladi.

Bir mo'min bemor yotgan mo'min birodarini ko'rgani borsa, bosib o'tgan yo'llarida jannat bog'larida yurgandek bo'ladi.

Iymonli odam va'daga vafodor bo'ladi.

Har bir odamning amakisi izzat-hurmat va munosabatda o'z otasi kabidir. Amaki - ota o'rnidadir.

So'zda sehr bor, she'rda esa hikmat.

Sizlar odamlarni mol-u dunyolaringiz bilan mamnun qila olmaysizlar, balki mehriq yuz va yaxshi xulqlaringiz bilan minnatdor qilishlaringiz mumkin.

Yaxshi odam bilan o'tirish go'yo mushk-u anbardek, yomon odam bilan birga bo'lish esa temirchining bosqoni kabidir.

Qo'shni bilan yaxshi aloqada bo'lingizlar.

Ro'za tutish, namoz o'qish va sadaqa qilishdan ham afzal amaldan sabar beraymi?! U ikki kishini yarashtirib qo'yishdir. Birovlarning o'rtalarini buzish dinning qironidir (qirg'inidir).

Oralaringizda eng kuchlilaringiz kimligini aytaymi?! U g'azabi kelganda o'zini tutib tura oladiganingizdir.

Odamlar orasida chaqimchilik va bo'hton gaplarni tarqatishdan saqlaninglar.

Oddiy kiyim kiyish ham iymondandir.

Rostgo'ylikka xavf-u xatar ko'rsangizlar ham rost so'zlangizlar. Shunda najot topasizlar. Garchi foyda ko'rib turgan bo'lsangiz ham yolg'ondan saqlaningizlar. Chunki baribir yolg'onning oxiri voy.

Bir-birlaringizga xayr-ehsonli, mehr-oqibatli bo'lib, qo'l berib so'rashib yuringlar, shunda dillaringizdagi g'ashlik ketadi.

Kishining go'zalligi - uning tilidan bilinur.

Mo'minlarning bir-birlarida oltita haqlari bor: salom berish, chaqirsa borish, maslahat so'rasa berish, aksirsa javob aytish, kasal bo'lsa borib ko'rish, o'lsa borib dafnida qatnashish.

Sizlarning yaxshilaringiz - xushshulq, shirin suhbatlilaringizdir. Yomonlaringiz esa og'zini to'ldirib, ezmalik ila ko'p gapiruvchilaringizdir.

Xatning javobini qaytarish - go'yo salomga alik olishlik kabi zarurdir.

Muloyimlik - hikmatning boshidir.

Yoshlikda olingan bilim toshga o'yilgan naqsh kabidir.

Har bir qilinadigan yaxshilik sadaqa savobiga tengdir.

Kimki birovning yozayotgan yoki kelgan xatini beruxsat o'qishga intilsa, go'yoki u do'zaxga intilgan bo'ladi.

Qo'llarida ovqatdan qolgan yog' qoldiqlari bilan yotib uxlagan odamga biror kasallik yopishsa, o'zidan ko'rsin.

Kimki ota-onasining roziligini olgan bo'lsa, unga qanday yaxshi! Tangri uning umrini uzaytiradi.

Dasturxonga to'kilgan taom va ushoqlarni terib yeydigan odamning gunohlari to'kiladi.

Kimki birovni o'z nomi o'rniga biror laqab bilan chaqirsa, uni farishtalar la'natlaydilar.

Kimning xulqi yomon bo'lsa, u o'zini azobga giriftor qiladi.

Kim soch qo'ygan bo'lsa, uni e'zozlab toza va tartibli tutsin!

Rasululloh beijoat ikki kishining o'rtasini yorib, oralariga suqilib kirib o'tirishni man etganlar.

Yomon ulfatdan yakkalik yaxshi, yakkalikdan yaxshi ulfat yaxshi, jim o'tirgandan foydali gap yaxshi, befoyda gapdan sukut saqlagan yaxshi.

Salom berib kirmagan odamni huzuringizga qo'ymangizlar.

Mehmondo'st bo'lmagan odamdan yaxshilik kutilmaydi.

Bir-birlaringizga tuhmat va bo'hton qilmanglar!

«Assalomu alaykum» - Tangrining yerdagi ishlaridan biridir. Bir-birlaringiz bilan salomlashib yuringizlar. Zero, mo'min kishi odamlar oldidan o'tib borayotib ularga salom bersa, ular ham alik olishsa, ularga salomni estagani uchun bir daraja ko'p savobga erishadi. Mabodo alik olishmasa, unga berib, ulardan yaxshiroq va afzalroq zotlar, ya'ni farishtalar alik olishadi.

Uzilib ketgan qarindoshlaringizga muruvvatli bo'ling. Birov sizga yomonlik qilsa ham, siz unga yaxshilik qilavering. Garchi o'zingizning zararingizga bo'lsa ham haq so'zni so'zlang.

Ilm o'rganish har bir mo'min uchun farzdir. Ilm tolibi yoki foydali ilmlarni o'rgatuvchi odamlar uchun har bir narsa, hatto dengizdagi baliqlar ham u kishining gunohlarini kechirishni so'rab Allohga istig'for aytadilar.

Eshikni taqillatayotgan odam o'zining kimligini ham bildirsin. «Kimsiz?» desa, otini aytmay «Men», deb javob berishlikni Rasululloh yoqtirmas edilar.

Omonatga olib kiyingandan ko'ra, qirq yamog'li bo'lsa-da, o'z kiyimida yurgan yaxshi.

Qaysi bir ishni odamlar oldida qilish uyat deb bilsangiz, uni yolg'iz qolganingizda ham qilmang.

Ilmni o'rganib, so'ng uni boshqalarga o'rgatmaslik go'yoki mol-udunyoni yig'ib, uni sarf qilmay ko'mib qo'yish bilan barobardir.

Bemorni ko'rgani borganda uning peshonasiga qo'lni qo'yib hol-ahvol so'rash barkamol ziyorat hisoblanadi. Qo'l berib ko'rishib salomlashish mukammal bo'ladi.

Kimki hayotda tejamkor bo'lsa, zinhor qashshoqlikka tushmaydi.

Kimki otasining vafotidan keyin ham unga yaxshilik qilishni istasa, uning yor-u birodarlari bilan aloqani uzmasin.

Non ham non, ushog'i ham non

Non. Mana shu birgina so'z zamirida bir jahon ma'no bor. Non shunchaki dasturxonimiz bezagi emas, balki tiriklik mazmuni, hayot manbayidir. Shu boisdan ham, ajdodlarimiz nonni muqaddas bilganlar, u haqda qo'shiq va dostonlar to'qiganlar. Yerdan bir burda nonni ham, kichik bir ushog'ini ko'rsak ham olib darrov ko'zimizga surtishimiz, ehtiyotlab pokiza joyga qo'yishimizning boisi ham nonga bo'lgan buyuk muhabbatimiz va e'tiqodimizning ramzidir.

O'zbek xalqining zamonlar sinovidan o'tgan juda ko'p yaxshi milliy odat va an'analari bor. Non bilan bog'liq shunday milliy rasm-rusumlar udumlar ham borki, ular ota-bobolarimizning behad donishmandligidan dalolat beradi. Zero, xalq nazarida hamma narsa: or-nomus ham, vijdor ham, iymon ham nonni e'zozlashdan boshlanadi. «Non - kechamiz, bugunimiz, ertamiz», - deb ta'kidlaydilar bobolarimiz. Ha, onalar sutining mo'tabarligi, otalar bilagining baquvvatligi, bolalar tabassumining nafosati yurt go'zalligi-yu turmush chiroyi, o'tmishimizning mavjudligi-yu kelajagimizni barqarorligi ana shu non bilan bog'liqdir.

Haqiqat - oltindan qimmat.

Intilganga tole yor.

Jahl - dushman, aql - do'st.

Kamtarga - kamol, manmanga - zavol.

La'nat yog'diruvchi bo'lmang, rahmat eshittiruvchi bo'ling.

Mehr - ko'zda, aql - so'zda.

Nonga hurmat - elga hurmat.

Odobli bola - elga manzur.

Po'lat o'tda bilinar, odam - mehnatda.

Qoqilsangiz, toshdan o'pkalamang.

Rost so'zni ayting, yolg'on so'zdan qayting.

Sog' tanda - sog'lom aql.

Tilga ixtiyorsiz - elga e'tiborsiz.

Ustoz - otangdan ulug'.

Dushmanga joningni bersang ham,
Siringni berma.

Dono aytsa, el aytgani,
Elning g'amin yeb aytgani.

To'g'ri bo'lsang, o'sib borib, gul bo'lasan,
Egri bo'lsang, o'sib borib, qul bo'lasan.

Hurmat qilsang, hurmat ko'rasan.

Xalq sog'ligi - yurt boyligi.

Yomg'ir bilan yer ko'karar,
Tinchlik bilan el ko'karar.

Dangasaning ishi bitmas,
Yoz kelsa ham, qishi bitmas.

Dindan chiqsang ham eldan chiqma.

El tinchligini buzgan - omon qolmas.

Elga qo'shilsang, el bo'lasan,
Eldan ajralsang, yer bo'lasan.

O'zga yurtda shoh bo'lguncha,
O'z yurtingga gado bo'l.

Ish kuchini elga berma, yerga ber,
Jang'armani selga berma, elga ber.

Mehnat qancha qiyin bo'lsa,
Keti shuncha shirin bo'lar.

Mehnatdan qo'rqma,
Minnatdan qo'rq.

Hatol ish - lazmatli yemish.

Davlat tugat, bilim tugamas.

Ilmsiz - bir yashar,
Ilmi - ming yashar.

Ko'p yurgan - ko'p ko'rar,
Ko'p o'qigan - ko'p uqar.

Bilim - davlaidan qimmat.

Hunarli er xot bo'lmas,
Din'st-dushmanga zor bo'lmas.

Eitob - yarug' mash'al.

«ENG,

ENG,

ENG...»

Amerikaning «Vashington post» gazetasi «Eng, eng va eng» shiori
nda o'ziga ming yillikdagi eng ulig' shaxslar, asarlar va voqealarni qayd
ish maqsadida o'ziga xos reyting o'tkazganlar.

Insoniyat tarixida eng buyuk imperiyani vujudga keltirgan mo'g'ullar
hukmchisi Chingizxon (1155-1227- y) ming yillikning eng mashhur
shisi deb tan olindi.

- Shekspir insoniyatning eng buyuk dahosi.
- Albert Eynshteyn - eng yirik olim.
- Greta Garbo - eng mashhur aktrisa.
- Motsartning «Figaroning to'yi» operasi - eng yirik musiqa asari.
- Rimdagi Sekstin kapellasi - eng noyob inshoot.
- Ming yillikdagi eng razil inson Adolf Gitler deb e'lon qilindi.
- To'la ishlatishga yaroqli telefon uchun dunyoda birinchi patent 1876 yilda amerikalik Aleksandr Bellga berilgan.
- Dunyodagi eng yirik kutubxona Kongress Kutubxonasi (AQSH milliy kutubxonasi) hisoblanadi. 1800- yilda asos solingan mazkur dargohda 9 milliondan ortiq asar saqlanadi.
- Geliotsentrizm (Yerning quyosh atrofida aylanish) g'oyasini birinchi bo'lib taxminan er. av. 310 - 250- yillarda yashagan qadimgi grek astronom Aristrax Samosskiy aytgan.
- Dengiz qushlari ichida eng katta tuxum qo'yadigani bu Albatro hisoblanadi. Uning bitta tuxumining og'irligi 9ta tovuq tuxumining vazniga teng.
- Ilk bor sharikli ruchkalar ishlab chiqarish 1943- yil Argentinada yo'lgu qo'yilgan.
- Benzinda yuruvchi birinchi avtomobil 1887- yil nemis ixtirochisi Gotlib Daymler tomonidan ishlab chiqarilgan.
- Antarktida 1820- yil yanvar oyida F.F.Bellinsgauzen va M.P.Lazaryov boshchiligidagi rus ekspeditsiyasi tomonidan kashf etilgan.
- Eng kalta ilonlar, asosan Karib orollarida uchraydi va ularning uzunligi 12 sm.dan oshmaydi. Ilonlarning eng uzunini esa, Indoneziya va Filippin orollarida uchratish mumkin. Ular uzunligi o'rtacha 6 metrga teng keladi.
- Markaziy Amerikadagi Maya hindulari tomonidan eng birinchi chaynaladigan saqich kashf qilingan ekan. Hindular saqich daraxti o'zagigacha teshib, oralig'idagi quyuc moddani olib chaynashga odatlanishgan.
- Jahonda eng sodda til Gavay orolida yashovchi xalqlar lisonidir. Unda 6 ta undosh va 5 ta unli harflar bor, xolos. Shuningdek, bu tilda birorta ham talaffuz qilish qiyin bo'lgan so'z uchramaydi. Ammo uning grammatikasi shu qadar murakkabki, hatto o'tkir tilshunoslar ham bu til qarshisida ip esholmay qolishadi. Shunday bo'lsa-da, gavay tilida hech qiyalmay istalgan fikrni izhor etish mumkin.
- 1665- yili Parij shahrida «Olim jurnali» nomi bilan chop etilgan jurnal birinchi vaqti matbuot hisoblanadi. Hajmi bor-yo'g'i bir necha betdan iborat bo'lgan bu jurnalda Yevropa va jahondagi fan va texnika yangiliklari bosilardi. Uning muallifi Deni de Salo nomli kishidir.

2001- YIL NOBEL MUKOFOTI SOVRINDORLARI

1901- yildan boshlangan va demak, bir asrdan buyon meditsina (biologiya), fizika, kimyo, adabiyot, tinchlik sohasidagi yutuqlari uchun, 1909- yildan boshlab esa iqtisodiyot ilmini (jami 6 fanni) rivojlantirishga qo'shgan yuksak hissalari uchun yetakchi olimlar va jamoat arboblari har yili Nobel mukofoti berib kelinmoqda. Bu jahondagi eng obro'li va qimmatli mukofot shvetsiyalik olim va ishbilarmon Alfred Bernxard Nobel (1833- yil 21- oktabr - 1896- yil 10- dekabr) nomi bilan bog'liq. U 1985- yil o'z vasiyatnomasida hayoti davomida to'plangan katta mol-mulkni taniqli olimlarga mukofot sifatida bo'lib berishni so'ragan edi. Bu mukofot sovrindorlari har yili Nobel tug'ilgan kuni (21- oktabr) e'lon qilinadi va ulardan o'tgan kuni (10- dekabr) tantanali ravishda topshiriladi.

2001- yilgi meditsina sohasidagi Nobel mukofoti amerikalik Leland Hartvell va britaniyalik Timoti Xant va Ser Pol Nyurselarga «To'qimalar sikli asosiy regulyatorlarni ochganliklari uchun» berildi. Bu mukofot sovrindorlari tirik organizmlar to'qimalari rivoji va bo'linish jarayonini tartibga soluvchi molekulalar-siklinlarni o'rgandilar va izohlab berdilar. Karolina institutining Nobel qo'mitasi tomonidan: «Istiqbolda bu fundamental kashfiyotlar onkologik kasalliklarni davolashda yangi yo'llarni ochib berishi mumkin», degan xulosa chiqariladi.

Fizika bo'yicha mukofot amerikalik olimlar Erik Kornell, Kard Vayman va Voltgan Ketterle (Germaniyadan kelgan)ga nasib etdi. Jahonga taniqli buyuk fizik Albert Eynshteyn tomonidan 75 yil avval bashorat etilgan «moddaning beshinchi agregat holatini yaratganliklari uchun» yuqoridagi olimlar shu mukofotga sazovar bo'ldilar. 1995- yili Kornell va Vayman birgalikda, Ketterle mustaqil ravishda boze-Eynshteyn deb nomlanuvchi kondensatni olishga muvaffaq bo'ldilar, bu kondensat o'ta kichik masofalar va obyektlarni yuqori aniqlikda o'lchash imkonini beradi. Mukofot berishda bu olimlarning shu kashfiyotini ro'yobga chiqarishga olib kelgan avvalgi fundamental ilmiy ishlari ham inobatga olingan.

Kimyo fani bo'yicha Nobel mukofoti Uilyam Noulz (AQSH), Barri Sharptes (AQSH) va Riodzi Nolori (Yaponiya)ga berildi. Bu olimlarning ilmiy ishtiroqlari kardiologiyada qo'llaniladigan farmatsevtika sanoati tomonidan antibiotiklar va boshqa dorilar tayyorlashda foydalaniladi.

Iqtisodiyot bo'yicha mukofot uch amerikalik olim: Eorj Akerlof, Maykl Spens va Jozef Stiglitsga berildi. Ular 70- yillarda assimetrik informatsiyaga oid bozorlar nazariyasi asoslarini yaratganligi uchun shu mukofotga sazovar bo'ldilar. Bu nazariya bozor iqtisodiyotini o'rganishda tayanch nazariyalardan biri bo'lib hisoblanadi.

Adabiyot sohasidagi sovrin Buyuk Britaniyada istiqomat qiluvchi, asli

Trinidad davlatidan chiqqan yozuvshi Vidyaxar Suradjprasad Naypolga berildi. Tanqidchilar uning eng mashhur asarlari qatoriga «Orolol uzra p 6X (1967- povest va hikoyalari to'plamini), «Mister Bisuos uchun uy»(1961) va «Paydo bo'lish jumbog'i» (1987) romanlarini kiritadilar.

Yuqorida keltirilgan sovrindorlar Shvetsiya akademiyasi tomonidan e'lon qilingan bo'lsa, tinchlik bo'yicha laureat Norvegiya Nobel qo'mitasi tomonidan aniqlanadi. Bu mukofot BMT va uning bosh kotibi Kofi Annanga nasib etdi. Qo'mita raisi Gunnar Berger bayonotiga ko'ra, bu mukofot BMT va uning bosh kotibi Kofi Annanga «Nisbatan tartibga keltirilgan va osoyishta tinchlikni ta'minlashga qo'shgan hissasi uchun» berildi.

Har bir mukofot miqdori jamg'armaga bog'liq va bir million AQSH dollari atrofida bo'ladi hamda Nobel vafoti kuni (10- dekabrda) tantanali topshiriladi (Abduhalil Razzoqov).

«EY DO'ST»

(Shoir Azim SUYUNning «1001 bütik» kitobidan)

Ey do'st,

«Baxt nima?» - so'radi mendan bir o'g'lon,

«Ul qayda?» - so'raydi yo'qsil olomon.

Men dedim: «O'zing bil, o'zingdan izla,

Uni o'zgalardan topmog'ing gumon!

Ey do'st,

Bu olam tilsimdir, odamzod tilsim,

Ular sirin ochmoq bo'ladi har kim.

No'nggi darvozaga yetganda, biroq,

Umri tugar, tag'in barchasi jumboq.

Ey do'st,

Fomchidan jilg'alar, jilg'adan soylar,

Soylardan daryolar quvvati paydo.

Odamki odamga ko'nglini boylar,

Ular qudratidan hayratda dunyo.

Ey do'st,

Bu dunyoda hamma narsa hisob-kitobli,

Har umrining har lahzasi hatto javobli.

O'lganingda boring bo'lsa sochilar ekan,

Yo'g'ing bo'lsa yara kabi ochilar ekan.

Ey do'st,

Ne mul-dunyo o'tmas davron ilkidan,

Bulut soyasidir - har ganji a'lo.

Ko'rdim, ota-onang meros mülkidan,

Qo'lingdagi hunar davlati avlo.

Ey do'st,

Kimki qadrlagay tiriklik/umrin,

Asla tilak yurmas birov/o'limin.

Bir g'iyoh zaharli, biri dorivor,

Bir-birin asrovchi o'rtida sir bor.

Ey do'st.

Ustoz bir kuni dedi: - Chin ilm ista,
Ilmi xom bandalar - bemag'iz pista.
Yuz qarolig'ni qo'y - qilmading amal,
Ki ilmi rostlardan, bas, bilim ista!

Ey do'st.

Daraxt - ulkan, kesar boshi-uchidan,
Ildizidan kesar nihol bo'lsa, boq.
Sir bermas, garchi tog' nurar ichidan,
Sirni sir ochgaydir bir kuni biroq.

Ey do'st.

Ixtiyor bizdandir, ijozat sizdan,
Bir oq yo'l bersangiz qalb-ko'nglingizdan.
Dasturxon ilinji bizgadir yiroq,
Bir nur olib qaytsak, bas, mulkingizdan.

Ey do'st.

Vatandin begona joyda baxt yo'q, yo'q,
Baxt bo'lsa agar, ki vatan - taxt yo'q, yo'q.
Ariq bo'lsin ikki qoshim o'rtasi -
Vatan suvi oqsin, o'zga ahd yo'q, yo'q!

Ey do'st.

Hayotimiz, fursat bor, qalblar bo'lsin shod,
Dil dildan suv ichsin, aylasin obod.
Qora-oq tog'lardan oshib o'tgach so'ng,
Befoyda ayla yod, aylagil faryod.

Ey do'st.

Marhumlarga bo'lsin hamdu sanolar,
Xoki poklarida unsin lolalar.
Bizni olqishlardan tutingiz yiroq,
Biz hali noayon: qora yoki oq.

Ey do'st,
Do'st kerak to'g'riga ham, gumrohga ham,
Do'st kerak gadoga ham, podshohga ham.
Do'st boshga boqar emish, yov oyoqqa,
Do'st kerak bu olamdin Allohga ham.

Ey do'st,
Hayot va o'lim, voh, har dam, har qachon,
Ikki ko'zdek turar ekan yonma-yon.
Qoldir yaxshi nomu, xotira, qadr,
Ikki ko'z orasi juda yaqindir!

Ey do'st,
Demishlari dardingni tabibga aytgil,
Shodliging sharorin habibga aytgil.
Unga ham, bunga ham sir aytmoqdan qayt,
Siring aytar bo'lsang, oqar suvga ayt.

Ey do'st,
Tuproqning joni bor, suvning piri bor,
Havoning qoni bor, olov siri bor.
Ulardan yaralmish asli odamzod,
Buni aytmuqlikka uning tili bor.

Ey do'st,
Ko'rib hosilin, ko'r, yig'ar bir kunda,
Dehqon-chi, bir yilda yig'adi uni.
Har ikkisiga ham qo'lim ko'ksimda,
Ular ishig'ol qilsin, deyman, dunyoni.

Ey do'st.

Mayli, bu so'zlarim gulga, toshgadir,
Yoki bir guruchga, yoki moshgadir.
Yetti avlodimning anglab yetgani:
Vatan boshqaning - ko'ngli boshqadir.

O'ZBEK TILINING ASOSIY IMLO QOIDALARI

HARFLAR IMLOSI

Unlilar imlosi

1. A a harfi:

1) aka, alanga, aloqa, og'a; sentabr, noyabr kabi so'zlarda old qator keng unlini ifodalash uchun yoziladi;

2) bahor, zamon; savol, gavda; vasvasa kabi so'zlarning oldingi bo'g'inida, vaqt, vahm kabi so'zlarda a aytiladi va yoziladi.

2. O o harfi:

1) ona, omon, quyosh, fido, baho, xola, lotin; mukofot, mahorat kabi so'zlarda orqa qator keng unlini ifodalash uchun yoziladi;

2) boks, poyezd, tonna, talon; agronom, mikrofon; direktor, termos kabi o'zlashma so'zlardagi unlini ifodalash uchun yoziladi.

3. I i harfi:

1) ish, iz, qil, xirmon, ilhom, ikki, ixtisos, shoyi, tulki; volida, piramida bilan, biroq, sira, qishloq, chiroq kabi so'zlarda old qator tor unlini ifodalash uchun yoziladi;

2) o'tin, o'rik, bo'lim kabi oldingi bo'g'inida o' unlisi keladigan so'zlarning keyingi bo'g'inida i aytiladi va yoziladi.

4. U u harfi:

1) uy, kun; buzoq, buloq, Buxoro; butun, uchuq, usul, yulduz; mafkura ko'zgu, uyqu; aluminiy, yubiley kabi so'zlarda orqa qator tor unlini ifodalash uchun yoziladi;

2) qovun, sovun, tovush, yovuz, qirg'ovul, chirmovuq kabi so'zlarning oldingi bo'g'inida o unlisi kelsa, keyingi yopiq bo'g'in boshidagi o undoshidan keyin u aytiladi va yoziladi.

5. O' o' harfi o't, o'q, o'zbek, o'simlik, do'ppi; bo'tako'z, semizo'g'ulko'rpa, noo'rin kabi so'zlarda orqa qator o'рта-keng unlini ifodalash uchun yoziladi.

6. E e harfi ekin, esla, evara, ekran, eksport; kel, zehn; kecha, bel telefon, teatr; poyezd, atelye; e'lon, ne'mat, she'r kabi so'zlarda old qator o'рта-keng unlini ifodalash uchun yoziladi.

7. Yonma-yon keladigan unlilar imlosi:

14. **T t** harfi: tong, tun; butun, o'tin, o't, kut kabi so'zlarda til jarangsiz portlovchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

15. **Z z** harfi:

1) zar, zamon; toza, o'zbek; yoz, g'oz kabi so'zlarda til oldi jarangsiz sirg'aluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi;

2) iztirob, izquvar, bo'zchi, tuzsiz kabi so'zlarda jarangsiz undosh oldin s aytilsa ham, z yoziladi.

16. **S s** harfi sog', somon, oson, asos, olmos kabi so'zlarda til jarangsiz sirg'aluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

17. **Sh sh** harflar birikmasi shahar, shisha, shodlik; ishq, pishiq; bosh kabi so'zlarda til oldi jarangsiz sirg'aluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

Sh harflari ikki tovushni ifodalasa, ular orasiga tutuq belgisi qo'yiladi. Is'hoq, as'hob kabi.

18. **J j** harfi:

1) jon, jahon, jiyda, tijorat; rivoj, vaj kabi so'zlarda til oldi jarangsiz qorishiq undoshni ifodalash uchun yoziladi;

2) jurnal, proyektor; gijda, ajdar, garaj, tiraj kabi o'zlashma so'zlarda til oldi jarangli sirg'aluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

19. **Ch ch** harflar birikmasi choy, chevar, chiroyli, chaman; achchiq uchun, bichiqchi; kuch, kech kabi so'zlarda til oldi jarangsiz qorishiq undoshni ifodalash uchun yoziladi.

20. **R r** harfi rahmat, rohat, orom, doira, bor, diyor kabi so'zlarda til oldi ovozdor titroq undoshni ifodalash uchun yoziladi.

21. **L l** harfi lola, loyiq, la'l, iloj, mahal kabi so'zlarda sirg'aluvchi ovozdor yon undoshni ifodalash uchun yoziladi.

22. **N n** harfi:

1) non, nomus; ona, tana; bilan, tomon kabi so'zlarda til oldi ovozdor burun undoshini ifodalash uchun yoziladi.

2) shanba, yonbosh, jonbozlik; yonma-yon, ko'rinmaslik kabi so'zlarda til oldi yon tovushi ba'zan m aytilsa ham, n yoziladi.

23. **G g** harfi gul, go'zal; ega, gugurt; teg, eg kabi so'zlarda til jarangli portlovchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

Asos va qo'shimchalar imlosi

33. Qo'shimcha qo'shilishi bilan so'z oxiridagi unli o'zgaradi:

1) **a** unlisi bilan tugagan fe'llarga **-v, -q, -qi** qo'shimchasi qo'shilganda **a** unlisi **o** aytiladi va shunday yoziladi: sayla-saylov, sina-sinov, aya-ayovsiz, so'ra-so'roq, bo'ya-bo'yoq; o'yna-o'ynoqi, sayra-sayroqi kabi;

2) **i** unlisi bilan tugagan ko'pchilik fe'llarga **-v, -q** qo'shimchasi qo'shilganda bu unli **u** aytiladi va shunday yoziladi: o'qi-o'quvchi, qazi-yazuvchi, sovi-sovuq kabi. Lekin **i** unlisi bilan tugagan ayrim fe'llarga **-q** qo'shimchasi qo'shilganda bu unli **i** aytiladi va shunday yoziladi: og'ri-og'riq, qavi - qaviq kabi.

Eslatma:

1) undosh bilan tugagan barcha fe'llarga **-uv** qo'shiladi: ol-oluv, yoz-yozuv kabi;

2) undosh bilan tugab, tarkibida **u** unlisi bor fe'lga **-uq** qo'shiladi: uz-uzuq, yut-yutuq kabi. Lekin uyushiq, burushiq, uchuriq (shuningdek bulduriq) kabi so'zlarning uchinchi bo'g'inida **i** aytiladi va shunday yoziladi.

34. **k, q** undoshi bilan tugagan ko'p bo'g'inli so'zlarga, shuningdek bek, yo'q kabi ayrim bir bo'g'inli so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda **k** undoshi **g** undoshiga, **q** undoshi **g'** undoshiga aylanadi va shunday yoziladi: tilak-tilaging, yurak-yuragim, kubok-kubogi, bek-begi; tayoq-tayog'i, qoshiq-qoshig'i, yaxshiroq-yaxshirog'i, yo'q-yo'g'i kabi. Lekin ko'p bo'g'inli o'zlashma so'zlarga, bir bo'g'inli ko'pchilik so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda **k, q** tovushi aslicha aytiladi va yoziladi: ishtirok-ishtirok, ocherk-ocherki, erk-erki, huquq-huquqim, ravnaq-ravnaqi, yuq-yuqi kabi.

35. Quyidagi qo'shimchalar qo'shilishi bilan so'zning tarkibida tovush tushadi yoki ortadi:

1) o'rin, qorin, burun, o'g'il, bo'yin, ko'ngil kabi ba'zi so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda, qayir, ayir kabi fe'llarga nisbat shaklini yasovchi **-il** qo'shimchasi qo'shilganda, ikki, olti, yetti so'zlariga **-ov, -al** qo'shimchalari qo'shilganda ikkinchi bo'g'indagi unli aytilmaydi va yozilmaydi: o'rin-o'rinim, qorin-qorni, burun-burning, o'g'il-o'g'ling, ko'ngil-ko'ngli, yarim-yarmi; qayir-qayril, ulug'-ulg'ay, sariq-sarg'ay, ikki-ikkala, yetti-yettov kabi;

2) u, bu, shu, o'sha olmoshlariga **-da, -dan, -day, -dagi, -ga, -gacha, -chi** qo'shimchalari qo'shilganda **n** tovushi qo'shib aytiladi va shunday yoziladi: unda, bunday, shunda, o'shanicha kabi; bu olmoshlarga egalik qo'shimchalari quyidagicha qo'shiladi: buningiz, o'shanisi kabi;

a) **k** undoshi bilan tugagan so'zlarga qo'shilganda bu qo'shimchalarning bosh tovushi **k** aytiladi va shunday yoziladi: tokka, yo'lakkacha, ko'nikkach, zerikkuncha, to'kkani, kechikkudek, bukkan, ekkin, kichikkina kabi;

b) **q** undoshi bilan tugagan so'zlarga qo'shilganda bu qo'shimchalarning bosh tovushi **q** aytiladi va shunday yoziladi: chopiqqa, qishloqqacha, yoqqach, chiqquncha, chiniqqani, qo'rqqudek, achchiqqina kabi;

d) qolgan barcha hollarda, so'z qanday tovush bilan tugashidan va bu qo'shimchalarning bosh tovushi **k** yoki **q** aytilishidan qat'iy nazar, g yoziladi: bargga, pedagogga, bug'ga, sog'ga, og'gan, sig'guncha kabi.

Qo'shib yozish

38. Xona, noma, poya, bop, xush, ham, baxsh, kam, umum, rang, mijoz, sifat, talab kabi so'zlar yordamida yasalgan qo'shma ot va qo'shma sifatlar qo'shib yoziladi: qabulxona, tabriknoma, bedapoya, ommabop, xushxabar, hamsuhbat, orombaxsh, kamquvvat, bug'doyrang, umumxalq, sovuqmijoz, devsisfat, suvtalab kabi.

39. **-(a)r** (inkor shakli- **-mas**) qo'shimchasi bilan tugaydigan qo'shma ot va qo'shma sifatlar qo'shib yoziladi: o'rinbosar, otboqar, cho'lquvar, ishyoqmas, qushqo'nmas kabi.

40. Takror taqlid so'zlarga qo'shimcha qo'shish bilan yasalgan ot va fe'llar qo'shib yoziladi: pirlpirak (pir-pir+ak), bizbizak (biz-biz+ak), hayhayla (hay-hay+la), gijgijla (gij-gij+la) kabi.

41. Narsani (predmetni) boshqa biror narsaga nisbatlash (qiyoslash), o'xshatish yo'li bilan bildiruvchi qo'shma ot va qo'shma sifatlar qo'shib yoziladi: karnaygul, qo'ziqorin, otquloq, oybolta, devqomat, sheryurak, bodomqovoq, qirg'iyko'z kabi.

42. Narsani uning rangi, mazasi, o'zidagi biror narsasi va shu kabi belgilari asosida bildiruvchi qo'shma otlar qo'shib yoziladi: olaqarg'a, qizilishton, achchiqtosh, mingoyoq kabi.

43. Narsaning biror maqsad, ish uchun mo'ljallanganligini bildiruvchi qo'shma otlar qo'shib yoziladi: kirsovun, qiymataxta, tokqaychi, oshrayhon, molqo'ra, nosqovoq, ko'zoynak kabi.

44. Narsani joyga nisbat berish asosida bildiruvchi qo'shma otlar qo'shib yoziladi: tog'olcha, cho'lyalpiz, suvilon, qashqargul kabi.

3) yetakchi va ko'makchi fe'l bir xil shaklda bo'lsa, chiziqcha bilan yoziladi: yozdi-oldi, borasan-qo'yasan, uxlabman-qolibman kabi.

52. Belgini kuchaytiruvchi qip-qizil, yam-yashil, dum-dumaloq, kuppa-kunduzi, to'ppa-to'g'ri, bab-barobar kabi so'z shakllari chiziqcha bilan yoziladi (lekin oppoq so'zi qo'shib yoziladi).

53. So'zning -ma, ba- yordamida birlashgan qismlari chiziqcha bilan yoziladi: ko'chama-ko'cha, uyma-uy, rang-barang, dam-badam kabi. Lekin mustaqil ishlatilmaydigan qism qatnashsa, bunday so'zlar qo'shib yoziladi: ro'baro', darbadar kabi.

54. Rus tilidan aynan yoki so'zma-so'z tarjima qilish yo'li bilan olingan so'zlar asliga muvofiq chiziqcha bilan yoziladi: unter-ofitser, kilovatt-soat kabi.

55. -chi, -a (-ya), -ku, -u (-yu), -da, -e, -ey (-yey) yuklamalari chiziqcha bilan yoziladi: sen-chi, boraylik-chi, sen-a, kutaman-a, bola-ya, mingta-ya, keldi-ku, kelgan-u, yaxshi-yu, yaxshi-da, qo'y-e, yashang-e, o'g'lim-ey, keldi-yey kabi. Ammo -mi, -oq (-yoq), -ov (-yov), -gina(-kina, -qina) yuklamalari o'zidan oldin kelgan so'zga qo'shib yoziladi: keldimi?, keliboq, o'ziyoq, ko'rganov, ko'rdiyov, mengina, qo'shiqqina kabi.

56. Tartib son arab raqamlari bilan yozilsa, -nchi qo'shimchasi o'miga chiziqcha (-) qo'yiladi: 7- sinf, 5- «A» sinfi, 3-, 7-, 8- sinf o'quvchilari, 60- yillar, 1991- yilning 1- sentabri kabi. Tartib sonni ko'rsatuvchi rim raqamlaridan keyin chiziqcha yozilmaydi: XX asr, X sinf kabi.

Ajratib yozish

57. Qo'shma fe'lning qismlari ajratib yoziladi: sarf qil, ta'sir et, tamom bo'l, sotib ol, olib kel, olib chiq, miq etma kabi.

58. Ko'makchi fe'l va to'liqsiz fe'l mustaqil fe'ldan ajratib yoziladi: aytib ber, olib ko'r, so'rab qo'y, ko'ra qol, bera boshla, yiqila yozdi, ketgan edi, ketgan ekan, ketgan emish kabi. Lekin mustaqil fe'l bilan yordamchi fe'l orasida tovush o'zgarishi bo'lsa, bunday qismlar qo'shib yoziladi: ayta-ver (ayta ber), boroladi (bora oladi), bilarkan (bilar ekan) kabi.

59. Ko'makchilar ajratib yoziladi: shu bilan, soat sayin, borgan sari, bu qadar, kun bo'yi kabi. Lekin bilan ko'makchisining -la shakli, uchun ko'makchisining -chun shakli chiziqcha bilan yoziladi: sen-la, sen-chun kabi.

60. Hamma, har, hech, bir, qay, u, bu, shu, o'sha so'zlari o'zidan keyingi yoki oldingi so'zdan ajratib yoziladi: hamma vaqt, har kim, hech qaysi, qay kuni, u yerda, shu yoqdan, o'sha yoqqa kabi. Lekin birpas, biroz, birato'la, birvarakayiga, birmuncha, buyon so'zlari qo'shib yoziladi. Shuningdek, qay so'zi yoq, yer so'zlari bilan ishlatilganda bir y tovushi tushsa, bu so'zlar qo'shib yoziladi: qayoqqa, qayerda kabi.

61. Sifat oldidan kelib, belgining ortiq yoki kamligini bildiradigan to'q, jiqqa, tim, liq, lang, och kabi so'zlar ajratib yoziladi: to'q qizil, jiqqa ho'l, tim qora, liq to'la, lang ochiq, och sariq kabi.

62. Murakkab son qismlari ajratib yoziladi: o'n bir, besh yuz, qirq ming olti yuz bir, bir ming yetti yuz sakson beshinchi kabi.

63. Yildan yilga, tomdan tomga kabi birinchi qismi chiqish kelishigida, ikkinchi qismi jo'nalish kelishigida bo'lgan birikmalar ajratib yoziladi.

64. Belgining ortiq darajasini bildiruvchi ko'pdan ko'p, tekandan tekin, yangidan yangi, ochiqdan ochiq, qizigandan qizidi kabilar ajratib yoziladi.

65. Izofali birikmalar ajratib yoziladi. Bunda izofa undosh bilan tugagan so'zlarga i shaklida, unli bilan tugagan so'zlarga yi shaklida qo'shiladi: dardi bedavo, nuqtayi nazar, tarjimayi hol kabi. Lekin izofa yozilmaydigan so'zlar, shuningdek, qismlaridan biri yoki har ikkisi o'zbek tilida mustaqil ishlatilmaydigan so'zlar qo'shib yoziladi: gulbeor (guli beor), dardisar kabi.

Bosh harflar imlosi

66. Kishining ismi, ota ismi, familiyasi, taxallusi, ramziy atoqli oti bosh harf bilan boshlanadi: Dilbar, O'rinova, Muhabbat Majidovna, Azamat Shuhrat o'g'li, Hamza Hakimzoda, Muhammadsharif So'fizoda, Mannon Otaboy, Navoiy, Furqat; Yelpig'ichxon, Salomjon Alikov kabi.

67. Joy nomlari bosh harf bilan boshlanadi: Andijon, Yangiyo'l (shaharlar), Naymancha, Buloqboshi (qishloqlar), Bodomzor, Chig'atoy (mahallalar), Zavraq (dara), Yaqoq (yaylov), Qoratog', Pomir (tog'lar), Oqtapa, Uchtepa (tepalar), Zarafshon, Sirdaryo (daryolar), Yoyilma (kanal); Turkiya, Hindiston (mamlakatlar) kabi. Bunday atoqli ot tarkibidagi sifatlovchi ham bosh harf bilan yoziladi: Shimoliy Kavkaz, Markaziy Qizilqum kabi.

68. Yulduz va sayyoralar, boshqa xil osmon jismlarining atoqli oti

bosh harf bilan boshlanadi: Hulkar, Qavs, Mirrix (yulduz va sayyoralar nomi), Tinchlik dengizi (Oydagi relyef nomi) kabi. Yer, quyosh, oy turdosh otlari sayyora nomi bo'lib kelgandagina bosh harf bilan yoziladi: Yer Quyosh atrofida, Oy Yer atrofida aylanadi.

69. Madaniy-maishiy va savdo korxonalariga, adabiyot va san'at asarlariga, sanoat va oziq-ovqat mahsulotlariga, shuningdek, transport vositalari, sport inshootlariga qo'yilgan nomlar bosh harf bilan boshlanadi: «Tong» (mehmonxona), «Saodat» (firma), «Navro'z» (hayriya jamg'armasi), «Kamalak» (matbaa birlashmasi), «G'uncha» (bog'cha), «Botanika» (sanatoriy), «Paxtakor» (stadion), «Qutlug'qon» (roman), «Dilorom» (opera), «Tanovar» (kuy), «Ozodlik» (haykal), «Jasorat» (yodgorlik), «Sino» (sovutgich) kabi.

70. Muhim tarixiy sana va bayramlarning nomlari tarkibidagi birinchi so'z bosh harf bilan boshlanadi: Mustaqillik kuni, Xotira kuni, Ramazon hayiti, Navro'z bayrami kabi.

71. Davlatlarning, davlat oliy tashkilotlari va mansablarining, xalqaro tashkilotlarning nomidagi har bir so'z bosh harf bilan boshlanadi: O'zbekiston Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Misr Arab Respublikasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Raisi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudining Raisi, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Jahon Tinchlik Kengashi kabi.

Boshqa tarkibli nomlarda oliy mansabni bildiruvchi birinchi so'zgina bosh harf bilan boshlanadi: Bosh vazirning o'rinbosari, Mudofaa vaziri, Yozuvchilar uyushmasi, O'zbekiston Milliy tiklanish demokratik partiyasi kabi.

Vazirliklar va idoralar, korxonalar va tashkilotlar nomi tarkibidagi birinchi so'z bosh harf bilan boshlanadi: Sog'liqni saqlash vazirligi, Fan va texnika davlat qo'mitasi, Fanlar akademiyasi, Tilshunoslik instituti kabi.

72. Davlatning oliy darajali mukofoti nomi tarkibidagi har bir so'z bosh harf bilan boshlanadi: «O'zbekiston Qahramoni» (unvon), «Oltin yulduz» (medal). Boshqa mukofotlar, faxriy unvonlar, nishonlar nomidagi birinchi so'zgina bosh harf bilan boshlanadi: «Sog'lom avlod uchun» (orden), «O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi» (faxriy unvon), «Matbaa a'lochisi» (nishon) kabi.

73. Gapning birinchi so'zi bosh harf bilan boshlanadi: Yer tagidan Muqaddasga bir qarab oldim (O.Yoqubov).

Eslatma:

1) ko'chirma gapdan keyin kelgan muallif gapining birinchi so'zi (agar u atoqli ot bo'lmasa) kichik harf bilan yoziladi: «Bu men», - qo'rqibgina javob berdi ko'laga (O.Yoqubov);

2) xatboshiga gapning sanaluvchi qismlari chiqarilganda bunday qismlar oldidan chiziq qo'yiladi va ular kichik harf bilan yoziladi:

Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni ko'rishga tayyorlash vaqtida tegishli organ (mansabdor shaxs) quyidagi masalalarni:

- mazkur ishni ko'rib chiqish uning huquq doirasiga kirish-kirishligini;
- ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi protokol va ishga oid boshqa materiallar to'g'ri tuzilgan-tuzilmaganligini ... hal qiladi;

3) gapning qismlari qavslari raqam yoki qavslari harf qo'yib sanalsa, bunday qismlar ham kichik harf bilan yoziladi:

Hozirgi o'zbek adabiy tilining lug'at boyligi asosan besh manba negizida tarkib topgan: 1) umumturkiy so'zlar, 2) o'zbekcha so'zlar, 3) tojik tilidan kirgan so'zlar, 4) arab tilidan kirgan so'zlar, 5) ruz tilidan kirgan so'zlar («O'zbek tili» darsligidan).

74. Tarkibli nomlarning bosh harfidan iborat qisqartmalar, atoqli ot bo'lmagan ba'zi birikmalarning qisqartmalari bosh harf bilan yoziladi: AQSH (Amerika Qo'shma Shtatlari), BMT (Birlashgan Millatlar Tashkiloti), AES (atom elektr stansiyasi) kabi. Qisqartma tarkibida bo'g'inga teng qism bo'lsa, uning birinchi harfigina bosh harf bilan yoziladi: ToshDTU (Toshkent davlat texnika universiteti) kabi.

Ko'chirish qoidalari

75. Ko'p bo'g'inli so'zning oldingi satrga sig'may qolgan qismi keyingi satrga bo'g'inlab ko'chiriladi: to'q-son, si-fatli, sifat-li, pax-takor, paxta-kor kabi. Tutuq belgisi oldingi bo'g'inda qoldiriladi: va'-da, ma'-rifat, mash'-al, in'-om kabi.

76. So'zning bosh yoki oxirgi bo'g'ini bir harfdan iborat bo'lsa, ular quyidagicha ko'chiriladi:

1) so'z boshidagi bir harfdan iborat bo'g'in yolg'iz o'zi oldingi satrda qoldirilmaydi: a-badiy emas, aba-diy, e-shikdan emas, eshik-dan kabi;

2) so'z oxiridagi bir harfdan iborat bo'g'in yolg'iz o'zi keyingi satrga ko'chirilmaydi: mudofa-a emas, mudo-faa, matba-a emas, mat-baa kabi.

77. O'zlashma so'zlarning bo'g'inlari chegarasida kelgan ikki yoki undan ortiq undosh quyidagicha ko'chiriladi:

1) ikki undosh kelsa, ular keyingi satrga birgalikda ko'chiriladi: dia-gramma, mono-grafiya kabi;

2) uch undosh kelsa, birinchi undosh oldingi satrda qoldirilib, qolgan ikki undosh keyingi satrga ko'chiriladi: silin-drik kabi.

78. Bir tovushni ko'rsatuvchi harflar birikmasi (sh, ch, ng) birgalikda ko'chiriladi: pe-shayvon, pe-shona, mai-shat, pi-choq, bi-chiq-chi, si-ngil, de-ngiz kabi.

79. Bosh harflardan yoki bo'g'inga teng qism va bosh harfdan iborat qisqartmalar, shuningdek, ko'p xonali raqamlar satrdan satrga bo'lib ko'chirilmaydi: AQSH, BMT, ToshDU, 16, 245, 1994, XIX kabi.

80. Harfdan iborat shartli belgi o'zi tegishli raqamdan ajratib ko'chirilmaydi: 5- «A» sinfi, V «B» guruhi, 110 gr, 15 ga, 105 m, 25 sm, 90 mm kabi.

81. Atoqli ot tarkibiga kiradigan raqam nomdan ajratilgan holda keyingi satrga ko'chirilmaydi: «Navro'z-92» (festival), «O'qituvchi-91» (ko'rik tanlov), «Andijon-9», «Termiz-16» (g'o'za navlari), «Boing-767» (saniolot), «Foton-774» (televizor) kabi.

82. A. J. Jabborov, A. D. Abduvaliyev kabilarda ismning va ota ismining birinchi harfiga teng qisqartmalar familiyadan ajratib ko'chirilmaydi. Shuningdek, v. b. (va boshqalar), sh. k. (shu kabilar) singari harfiy qisqartmalar ham oldingi so'zdan ajratib ko'chirilmaydi.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR:

1. «Lotin grafikasiga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Qonuni. T.: «O'zbekiston», 1993.
2. «Lotin grafikasiga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga kiritilgan o'zgartishlar haqida (O'zbekiston Respublikasi Qonuni). - «Xalq so'zi», 1995- yil 6-iyun.
3. O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari'. T.: «O'qituvchi», 1995.
4. Abdullayev Y. Hamrohim (Yangi alifbo va imlodan qo'llanma). T.: «O'qituvchi», 1996.
5. Abdullayev Y. Sovg'a (Yangi o'zbek alifbosi va imlosidan o'quv qo'llanma). T.: «O'qituvchi», 1996.
6. Rahmatullayev Sh., Hojiyev A. O'zbek tilining imlo lug'ati. T.: «O'qituvchi», 1995.
7. Rizayev S., Rizayeva O. Yozuv daftari. T.: «Kamolot», 1996, 1997.
8. Rizayev S. Qaldirg'och (O'qish kitobi). T.: «Ko'hi-Nur», 1997.
9. Rizayev S., Hikmatova M., Qodirova D. «Sovg'a» (O'qish kitobi). T., «Qatortol-Kamolot», 1998.
10. Rizayev S. «Imlo va talaffuz lug'ati». T.: «O'qituvchi», 1998.
11. Rizayev S. «Lotin harflariga asoslangan o'zbek alifbosi». T.: «Yozuvchi», 1999 (Plakat).
12. Rizayev S. «Yangi alifbodan saboqlar» (Maktab o'quvchilari, otanalar va mustaqil o'rganuvchilar uchun). T.: «O'qituvchi», 1999.
13. Rizayev S. O'zbek lotin alifbosi va imlosini o'rganuvchilar uchun o'quv qo'llanma (O'qish kitobi). T.: «Ko'hi-Nur», 1999.
14. Rizayev S., Solihova M. Lotin harflari asosidagi o'zbek alifbosini o'rgatish kursiga doir muxtasar qo'llanma (Tarbiyachi va o'qituvchilarga yordam). T., 2000.
15. Jo'raqulov R., Qurbonboyev B. O'zbek tili (Ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktab o'quvchilari uchun), T.: «RTM», 2000.
16. Abdullayev Y., Yo'ldosheva Sh. Yangi alifbo va imlo (O'quv qo'llanma), T.: «O'qituvchi», 2000.
17. Qoriyeva Sh., Rizayev S. «Yangi o'zbek lotin yozuvini o'rganamiz» (Rus guruhlariga uchun). T.: «Moliya», 2001.

* Ushbu qoidalar to'plami qo'llanmaning oxiriga ilova qilindi

MUNDARIJA

Yangi o'zbek alifbosi va imlosini o'rgatish (o'rganish) o'quv soatlarining taxminiy taqsimoti	3
Istiqloq alifbosi va imlosiga doir	6
Tutuq belgisi boshqa-yu, ko'chish belgisi boshqa	10
Qachon «e», qachon «ye» yoziladi?	12
Qachon sh, qachon SH yoziladi?	13
Familiya yasovchi qo'shinmchalar imlosi	14
O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi	16
O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi	17
O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i	18
Hayot bilan hamnafas (Islom Karimovning «O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida» nomli kitobidan parchalar)	19
Toshkentning o'n ikki darvozasi	23
Tarixning takrorlanishi	25
Iqtisod	25
Soliq nima?	26
«Hadis» nima?	26
«Hadis»dan namunalar	27
Non ham non, ushog'i ham non	32
Hikoyat	33
Yemoq odoblari	33
Hikmatlar	34
Maqollar	35
«Eng, eng, eng»	39
2001- yil Nobel mukofoti sovrindorlari	41
Ey do'st (Shoir Azim Suyunning «1001 bitik» kitobidan)	43
O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari	46
Foydalaniladigan adabiyotlar	59